

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

MAGISTRATURA BO'LIMI

**Qo'lyozma huquqida
UDK: 336.11**

ABDULLAYEV MA'RUFJON SHUHRAT O'G'LI

**DAVLAT MOLIYASI BARQARORLIGINI TA'MINLASHNI
TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI**

Mutaxassislik: 5A230601-«Davlat Moliyasini boshqarish»

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: i.f.n. A.Shernayev.

TOSHKENT-2018

Dissertatsiya Toshkent Moliya instituti «Moliya» kafedrasida bajarilgan.

Ilmiy rahbar

i.f.n. A.Shernayev

Kafedra mudiri

Prof. T.Malikov

Magistratura bo'limi boshlig'i

i.f.n., dots. U.Ortiqov

Men, Abdullayev Ma'rufjon Shuhrat o'g'li ushbu magistrlik dissertatsiya ishini mustaqil bajardim. Ko'chirmachilik holati yo'qligiga javob beraman. Ko'chirmachilikka yo'l qo'ygan holatimda magistrlik dissertatsiya ishi Yakuniy Davlat Attestatsiya Komissiyasi raisi taqdimnomasiga asosan bekor qilinishi va "Qoniqarsiz" baho qo'yilishidan xabardorman.

Abdullayev M. _____ “ ____ ” _____

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I-BOB. DAVLAT MOLİYASINI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISHNING MOHIYATI, MAQSADI, AHAMIYATI VA TARAQQIYOT BOSQICHLARI.....	8
1.1. Davlat moliyasining mazmun-mohiyati, ahamiyati va uning me'yoriy- huquqiy asoslari.....	8
1.2. Davlat moliyasi barqarorligini ta'minlashning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati.....	15
1.3. O'zbekiston Respublikasida Davlat moliyasini tashkil etish va boshqarishning taraqqiyot bosqichlari va tarkibiy tuzilishi.....	20
I - bob bo'yicha xulosa.....	28
II-BOB. DAVLAT MOLİYASI BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA DAVLAT MOLİYASINING ALOHIDA BO'G'INLARI SAMARADORLIGI TAHLILI.....	29
2.1. O'zbekiston Respublikasining davlat moliyasini tashkil etish va boshqarishning amaliy holati tahlili.....	29
2.2. Davlat byudjetdan tashqari fondlarining davlat moliyasidagi o'rni.....	39
2.3. Rivojlangan mamlakatlarda davlat mablag'larini samarali boshqarishda g'aznachilik tizimining tutgan o'rni.....	52
II - bob bo'yicha xulosa.....	57
III-BOB. DAVLAT MOLİYASI BARQARORLIGINI TA'MINLASH VA SAMARALI TASHKIL ETISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI.....	58
3.1. O'zbekiston Respublikasi davlat moliyasi barqarorligini ta'minlashda mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'nalishlari.....	58
3.2. Davlat moliyasini rivojlantirish borasida xorijiy mamlakatlar tajribasi.....	70
III - bob bo'yicha xulosa.....	79
XULOSA VA TAKLIFLAR.....	81
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	85

KIRISH

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi. Davlatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng davlatning boshqa sohalari kabi moliya siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri moliya tizimini va uning bo'g'inlarini isloh qilishdan iborat bo'ldi. Ushbu yo'nalishdagi muhim muammolardan biri – bu davlat moliyasini, ya'ni byudjet tizimini takomillashtirishdan iborat edi. Shu asnoda iqtisodiyotni isloh qilishni chuqurlashtirish, tarkibiy o'zgartirishlarning o'rta muddatli dasturlari izchil amalga oshirilishi 2017-yilda makroiqtisodiy barqarorlikni saqlab qolish va iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida ishlab chiqarish hajmlarining yuqori o'sish sur'atlarini ta'minladi.

Davlat moliyasining davlat byudjeti tizimidagi moliyaviy munosabatlarni samarali tashkil etish pirovardida byudjet ijrosini ijobiy natijaga erishishida muhim omil bo'lib hizmat qiladi. Davlat moliyasining to'g'ri va oqilona tashkil etilishi, nafaqat, mamlakat makroiqtisodiy barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi, balki xo'jalik sub'ektlarining iqtisodiy faoliyatiga har tomonlama ta'sir etish orqali mamlakatning iqtisodiy yuksalishiga olib keladi. Bu holat, o'z navbatida mamlakat moliya tizimi barqarorligida muhim o'rin tutadi. Shuningdek, Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek: "...biz muhtaram Birinchi Prezidentimiz Islom Abduganievich Karimov boshlab bergan keng ko'lamli siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar yo'lini og'ishmasdan, qat'iy va izchil davom ettiramiz."¹

Mamlakat moliya tizimi davlatning iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarini bajarilishida, davlat mablag'larini qayta taqsimlash va bozor infratuzilmasini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Ishlab chiqarilgan moddiy ne'matlarni taqsimlash va aholiga yetkazish davlat byudjeti tizimi orqali amalga oshiriladi.

Aholini ijtimoiy himoya qilish bilan bog'liq chora-tadbirlarni moliyalashtirish asosan, mazkur mablag'lar hisobidan moliyalashtiriladi. Bugungi kunda moliya tizimini samarali tashkil etishni ta'minlaydigan chora-tadbirlarni

¹ Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishangan Oliy Majlis palatalarining ko'shma majlisida "Erkin va farovon, demokratik o'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz" mavzusidagi nutqi, 12 bet, Toshkent, O'zbekiston, 2016 yil.

amalga oshirish muhim ahamiyatga ega. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida davlat moliyasining barqarorligini ta'minlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mamlakatimizda davlat moliyasining barqarorligini ta'minlashga qaratilgan islohotlar izchillik bilan amalga oshirilmoqda. Bu borada muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning quyidagi fikrlarini keltirib o'tish joizdir, "Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini saqlab qolish, jumladan, Davlat byudjeti barcha darajada mutanosib, milliy valyuta va ichki bozordagi narx darajasi barqaror bo'lishini ta'minlash – eng muhim ustuvor vazifamizdir."²

Mamlakat iqtisodiyotining erkinlashuvi va keng qamrovli iqtisodiy islohotlarning jadallashuvi sharoitida davlat moliyaviy resurslarning shakllanishi va sarflanishi yuzasidan kelib chiqadigan moliyaviy munosabatlari ham zamonaviy talablarga mos ravishda isloh qilinmoqda va takomillashmoqda. Moliya tizimining turli bo'g'inlari o'rtasidagi munosabatlar ham mintaqalar va mahalliy boshqaruv organlarning mustaqilligini mustahkamlash talablaridan kelib chiqib, sifat jihatdan yangi pog'onaga ko'tarilmoqda.

Davlat moliyasining barqarorligini ta'minlashda rivojlangan mamlakatlarning ilg'or tajribasini o'rganish va shu asosda ularning tajribasidan mamlakatimizda moliya tizimida foydalanish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Ushbu holat o'z navbatida bitiruv-malakaviy ishi mavzusining dolzarbligini belgilab beradi.

Tadqiqot ob'ekti va predmeti. Davlat moliyasining davlat byudjeti ijrosiga oid ko'rsatkichlar tizimi hisoblanadi. Tadqiqot ishning predmeti bo'lib, davlat moliyasining davlat byudjeti ijrosini ta'minlash jarayonida yuzaga keluvchi iqtisodiy munosabatlar tizimi hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari. Ishning maqsadi davlat moliyasining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini ta'minlashdagi rolini oshirish yuzasidan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iboratdir. Ushbu maqsaddan

²Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Toshkent: "O'zbekiston", 2017. 8 bet.

erishishda belgilangan bitiruv malakaviy ishining vazifalari:

- Davlat moliyasining iqtisodiy mohiyati va uning bajaradigan funktsiyalarini o'rganish;
- Davlat moliyasining asosiy tamoyillari va uni boshqarish sohasidagi vakolatlarini yoritish;
- Davlat moliyasining barqarorligini ta'minlashda xorijiy tajribalarini tadqiq etish;
- Davlat byudjeti daromadlarining tashkil topish manbalarini tahlil etish;
- Davlat byudjeti xarajatlarining tarkibini va amaldagiholatini tahlil qilish;
- Davlat moliyasi barqarorligini ta'minlashni takomillashtirish istiqbollari yoritish

Ilmiy yangiliklar. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida davlat moliyasining iqtisodiyotdagi o'rni va uni samarali tashkil etish muammolarini tadqiq qilish asosida quyidagi ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan:

- davlat moliyasining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati ochib berildi, uning «moliya» – “davlat moliyasi” – “davlat moliyasini boshqarish” kabi tushunchalari sintezidan iborat ekanligi asoslandi va uning mohiyatini ifodalovchi “davlat moliyasni boshqarish” tushunchasiga mualliflik ta'rifi berildi;
- Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida davlat moliyasining iqtisodiyotdagi o'rni va uni samarali tashkil etishning ob'ektiv zarurligi asoslandi;
- davlat moliyasini samarali tashkil etish va barqarorligini ta'minlashga ta'sir etuvchi omillar tarkibi aniqlandi, ular ma'lum bir mezonlar asosida tizimga keltirildi va turkumlashtirildi;
- davlat byudjeti daromadlari va xarajatlari muvofiqligini ta'minlashga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi;
- davlat moliyasini samarali tashkil etishda moliya mexanizmini ahamiyatini oshirishning ustuvor yo'nalishlari belgilab berildi;
- davlat moliyasi barqarorligini ta'minlashda soliq mexanizmini yanada ta'sirchanligini oshirish va takomillashtirish yo'llari ko'rsatib o'tildi.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari. Magistrlik dissertatsiya ishi yuzasidan olib borilgan tadqiqot natijalariga asosan ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarning amaliyotda qo'llanilishi va davlat moliyasi barqarorligini ta'minlashni tashkil etilishiga olib kelishi mumkin.

Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida moliya, davlat byudjeti, davlat byudjetining daromadlari va xarajatlari hamda davlat moliyasini samarali tashkil etish masalalariga oid muammolarni tadqiq etish bo'yicha o'zining alohida hissalarini qo'shgan respublikamiz iqtisodchi-olimlari Vahobov A.V., Malikov T.S., Haydarov N.H., Jo'raev A.S., Z.Yo'ldoshevlar³, shuningdek, xorijlik iqtisodchi-olimlar Aleshin V.A., Zotova A.I., Neshitoy A.S., Polyaka G.B., Shaxovskaya L.S., Xoxlov V.V., O.G.Kulakovalarning ilmiy ishlari, o'quv qo'llanmalari va darsliklarini nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilgan holda dissertatsiya tayyorlashda foydalanildi.⁴

Tadqiqotda qo'llanilgan metodikaning tavsifi. Dissertatsiya jarayonida mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraktsiya, prognozlash, sintez, matematik, induktsiya, deduktsiya, tizimli yondashuv, strategig tahlil, tarkibiy va qiyosiy tahlil, iqtisodiy taqqoslash, ilmiy umumlashtirish, statistik hisoblash va ilmiy bashoratlash usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining nazariy ahamiyati dissertatsiyada ilgari surilgan ilmiy-nazariy va amaliy g'oyalar, ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan davlat moliyasini barqarorligini ta'minlash va uni samarali tashkil etishga qaratilgan

³ Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya: umumnazariy masalalar. – T.: Iqtisod-moliya, 2008. – 316 b.; Jo'raev A.S. Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishning samarali yo'llari. – Toshkent: "Fan", 2004. – 243 b.; Malikov T. Soliqlar va soliqqa tortishning dolzarb masalalari. – Toshkent: "Akademiya", 2002. – 204 b.; Haydarov N.H. Soliqlar va soliqqa tortish masalalari: O'quv qo'llanma. – Toshkent: "Akademiya", 2007. – 256 b.; Yo'ldoshev Z., Malikov T. Uy xo'jaligi moliyasi. o'quv qo'llanma, Toshkent "IQTISOD-MOLIYA", 2008. - 105 b.; Malikov T.S., Haydarov N.H. Moliya: umumdavlat moliyasi. / O'quv qo'llanma. - Toshkent: "Iqtisod-moliya", 2009. – 556 b.

⁴ Алешин В.А., Зотова А.И.. Финансы: учебник. - Ростов н/ Д: Феникс, 2009 г. – 346 стр.; Нешитой А.С. Финансы. Учебник. – М.: "Дашков и К", 2009 г. – 528 стр; Поляк Г.Б. Финансы и кредит. Учебник.– М.: Влотеис Клувер, 2010 г. – 800 стр.; Шаховская Л.С., Хохлов В.В., Кулакова О.Г. и др. Бюджетирование: теория и практика: учебное пособие / – М.: КНОРУС, 2009 г. – 400 стр.

kelgusidagi maxsus ilmiy-tadqiqot ishlarida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot ishining amaliy ahamiyati O'zbekiston Respublikasi davlat moliyasi, byudjet tizimi, byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalar, byudjet daromadi va xarajatlari barqarorligini ta'minlash va samaradorligini oshirishga qaratilgan nazariy va amaliy tavsiyalardan davlat moliyasini samarali tashkil etish va rivojlantirish bo'yicha maqsadli davlat dasturlari ishlab chiqilishida foydalanish mumkin. Dissertatsiya materiallaridan oliy o'quv yurtlarida "Moliya", "Davlat moliyasini boshqarish", "Byudjetdan tashqari fondlar", "Davlat byudjeti" fanlarining o'quv dasturlarini takomillashtirish va o'qitish jarayonida foydalanish mumkin.

Tadqiqot ishi tarkibining tavsifi. Tadqiqot ishida o'rganilayotgan masalalarning mohiyatidan kelib chiqib kirish, uchta bob, har bir bob bo'yicha xulosa, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I-BOB. DAVLAT MOLIIYASINI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISHNING MOHIYATI, MAQSADI, AHAMIYATI VA TARAQQIYOT BOSQICHLARI

1.1.Davlat moliyasining mazmun-mohiyati, ahamiyati va uning me'yoriy- huquqiy asoslari

O'zbekiston o'z mustaqilligiga erishgach, qisqa vaqt ichida davlatchiligini, mustaqil moliya, kredit, sug'urta va boshqa sohalarni shakllantirish, ular vositasida murakkab xo'jalik va ijtimoiy jarayonlarni mohirlik bilan boshqarishni ham yo'lga qo'ya oldi.

Davlat moliyasi mamlakat moliya tizimining asosiy sohasi bo'lishi bilan bir qatorda davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ekologik funksiyalarini amalga oshirishda moliyaviy resurslar bilan ham ta'minlab turadi.

Davlat moliyasining iqtisodiy mohiyati bu – jami ijtimoiy mahsulotning qiymatini hamda milliy boylikning bir qismini taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonida davlat va davlat korxonalari ixtiyorida markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan moliyaviy resurslarning shakllanishi, shuningdek, kengaytirilgan ishlab chiqarish bilan bir qatorda jamiyatning o'sib borayotgan ijtimoiy-madaniy tadbirlarini moliyalashtirishdagi pul munosabatlari yig'indisidir. Mazkur sohadagi pul munosabatlarning sub'ektlariga davlat, korxonalar, birlashmalar, muassasalar va keng aholi qatlami misol bo'la oladi.

Turli mamlakatlarda iqtisodiy va moliyaviy munosabatlarning yanada rivojlanishi ulardan siyosiy maqsadlarda foydalanish, soliq, boj, kredit kabi vositalar yordamida ichki va tashqi siyosatda muayyan yutuqlarga erishish imkonini yaratdi. Bunday sharoitda davlatning moliyaviy tizimini vujudga keltirish, ularning bir maromda ishlashini ta'minlovchi qoidalarni yaratish, jamiyat moliyaviy faoliyati tamoyillarini ishlab chiqish masalalari dolzarb muammolardan bo'lib qoldi.

Iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichida davlat moliya tizimining ahamiyati tobora ortib borishi moliya organlarining faoliyatiga talabni kuchaytirib

yubormoqda. Moliya tizimining o'ziga xos tomonlari shundaki, turli xil mulksob'ektlarining xo'jalik yuritishdagi teng huquqli munosabatlarini o'zida ifoda etadi.

Moliya va moliyaviy tizimlar har qanday davlatga mablag'larni soliqlar, boj va boshqa yig'imlar tarzida fuqarolardan yig'ib olish, bir joyga to'plash hamda ulardan ko'zlangan maqsadga muvofiq foydalanish imkonini beradi. Shu yo'l bilan davlat apparatining bir maromda ishlashi, mamlakatning samarali mudofaa qudrati, insonparvarlik sohalarining rivoji, jamiyatning kam ta'minlangan va yordamga muhtoj bo'lgan tabaqalarining ijtimoiy jihatdan himoyalanihi ta'minlanadi, iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishlarini tezroq rivojlantirish choralari ko'riladi.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: "...barchamiz so'zsiz tushunamiz, iqtisodiy islohotlar va ijtimoiy o'zgarishlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish eng avvalo iqtisodiy va moliyaviy organlarning faoliyati samaradorligiga bog'likdir. Ular yaqin va uzoq istiqbolga mo'ljallangan, mamlakatimiz iqtisodiy qudratini mustahkamlashga doir strategik vazifalarni nafaqat ishlab chiqishi, balki amalga oshirishni ta'minlashi zarur.”⁵

Aslida «Moliya» arabcha so'z bo'lib, o'zbek tilida «pul mablag'lari»ma'nosini anglatadi. Bu so'z ona tilimizda quyidagi ko'rinishlardaishlatiladi:

- maqsadli pul fondlarini hosil qilish, jamlash, taqsimlash vaishlatish yuzasidan paydo bo'ladigan iqtisodiy munosabatlar majmui bo'lib, pul mablag'larini shakllantirish, taqsimlash, ularni sarf qilish tizimi(masalan, moliya yili, moliya kapitali, moliya tizimi);
- biror shaxs, oila, jamoa, muassasa, tashkilot yoki davlattasarrufidagi pul mablag'lari (masalan, korxona moliyasi);
- shunday (moliya) ishlar(i) bilan shug'ullanuvchi davlat organi (so'zlashuv tilida)⁶.

⁵ Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Toshkent: “O'zbekiston”, 2017yil, 17 bet.

⁶O'zbek tilining izohli lug'ati: J.2. Ye - M II Tahrir hay'ati: T.Mirzaev (rahbar) va boshq.; - T.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. - 6JJ-b.

Arab tilidagi «mol», ya'ni «boylik, mulk, pul jamg'armasi», shuningdek, «moliyat», ya'ni «pul mablag'lari, soliq» so'zlari ham moliyaga daxldordir⁷. Lug'aviy ma'nosi jihatidan «moliya» so'zi inglizcha «finance» va ruscha «финансы» so'zlarining ekvivalenti yokima'lum ma'noda sinonimi⁸ hisoblanib, eng avvalo, «daromad», «pul mablag'lari» yoki «to'lov» degan ma'nolarda ham ishlatiladi.

Moliya davlatning vujudga kelishi va uning resurslarga bo'lgan ehtiyojining rivojlanishi bilan doimiy (uzluksiz) tovar –pul munosabatlari sharoitida paydo bo'ldi. Davlatning mavjudligi yaratilayotgan iqtisodiy (moddiy) ne'matlarni taqsimlash va qayta taqsimlash bo'yicha oliy hokimiyat organi (shaxsi) sifatida davlat va takror ishlab chiqarish munosabatlarining boshqa ishtirokchilari (sub'ektlari) o'rtasida ma'lum bir munosabatlarning o'rnatilishini taqozo etadi. Xususan, ana shu munosabatlar «moliya» tushunchasi orqali ifodalangan.

Natural munosabatlar ustunlik qilgan jamiyatlarda taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonlari natural soliqlar va turli ko'rinishdagi shaxsiy to'lovlar ko'rinishiga ega bo'lgan. Tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi taqsimlash va qayta taqsimlash munosabatlari shakllarining o'zgarishiga olib keldi — ular ko'proq ravishda pul xarakteriga ega bo'ldi. Biroq bu munosabatlarning mazmun-mohiyati prinsipial jihatdan keskin o'zgarmay qolaverdi. Zamonaviy tasavvurdagi «moliya» tushunchasi davlat xazinasining shakllanishi va davlat byudjetining vujudga kelishi bosqichida paydo bo'ldi. Qayd etish lozimki, moliya va moliyaviy munosabatlarning mohiyati haqidagi tasavvurlar vaqt o'tishi bilan o'z ko'rinishini o'zgartirib borgan⁹.

Pul daromadlari va fondlarining eng asosiy moddiy manbai mamlakatning milliy daromadi (MD) hisoblanadi. Milliy daromadning hajmi umumdavlat ehtiyojlarini qondirish va ijtimoiy ishlab chiqarishni kengaytirish imkoniyatlarini

⁷O'zbek tilining izohli lug'ati: J.2. Ye - M II Tahrir hay'ati: T.Mirzaev (rahbar) va boshq.; - T.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. 610-611-betlar.

⁸Bu yerda dunyo xalqlarining turli tillarida shaklan turlicha va mazmunan bir xil ma'noni anglatuvchi so'zlarni nazarda tutilgan.

⁹Витте С.Ю. Конспект лекций о народном и государственном хозяйстве. - М.: Финансы и статистика, 1997. С.4).

aniqlab beradi. Aynan milliy daromad va uning alohida qismlarining — iste'mol fondi va jamg'arish fondining — hajmini hisobga olgan holda iqtisodiyotning rivojlanish nisbatlari va tarkibiy tuzilmasi aniqlanadi. Shuning uchun ham barcha mamlakatlarda milliy daromad statistikasiga katta ahamiyat beriladi. Moliyaning ishtirokisiz milliy daromadni taqsimlab bo'lmaydi. Moliya milliy daromadni yaratish va undan foydalanishning ajratib bo'lmaydigan bog'lovchi bo'g'ini hisoblanadi. Moliya ishlab chiqarish, taqsimlash va iste'molga ta'sir etuvchi ob'ektiv xarakterga ega. U ishlab chiqarish munosabatlarining ma'lum bir sohasini ifoda etib, bazis kategoriyasiga mansubdir.

Zamonaviy iqtisodiyot davlat moliyasisiz faoliyat ko'rsata olmaydi. Tarixiy taraqqiyotning ma'lum bir bosqichiga qadar jamiyatning ba'zi bir ehtiyojlari faqat davlat tomonidan moliyalashtirilishi mumkin. Atom sanoati, kosmik tadqiqotlar, iqtisodiyotning qator yangi ustuvor tarmoqlari, barcha uchun zarur bo'lgan korxonalar (pochta, telegraf va boshqalar) ana shular jumlasidandir. Moliya alohida olingan mamlakatlarda ishlab chiqarish kuchlari taraqqiyotining darajasini va ularning xo'jalik hayotidagi makroiqtisodiy jarayonlarga ta'sir etish imkoniyatlarini ifodalaydi.

Mamlakat iqtisodiyotining ahvoli moliya ahvolini belgilab beradi. Doimiy ravishdagi iqtisodiy o'sish, yalpi ichki mahsulot (YaIM) va milliy daromad (MD)ning oshib borishi sharoitida moliya o'z muntazamliligi va barqarorligini namoyon etadi. U ishlab chiqarishning yanada rivojlanishi va mamlakat fuqarolarining turmush darajasi ortib borishini rag'batlantiradi. Iqtisodiy krizis (tanazzul), ishlab chiqarishning pasayishi, ishsizlikning ortishi sharoitida moliyaviy ahvol keskin yomonlashadi. Bu esa, o'z navbatida, davlat ichki va tashqi qarzlarini hisobidan moliyalashtiriladigan byudjet defitsitining kattaligida, pul emissiyasida, davlat qarzining ortishi va unga xizmat qilish bo'yicha xarajatlarning ko'payishida namoyon bo'ladi. Bularning barchasi inflatsiya kuchayishiga, xo'jalik aloqalari buzilishiga, o'zaro to'lovlarga layoqatsizlikda, pul surrogatlarining paydo bo'lishiga, barterli bitimlarning ko'payishiga, soliqlarni undirish borasida qiyinchiliklarning kelib chiqishiga, davlat xarajatlarning o'z vaqtida

moliyalashtirilmasligiga, aholi keng qatlamlari turmush darajasining pasayishiga olib keladi. Shuning uchun ham iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlarda ishlab chiqarishdagi real sohalarning holati birinchi darajali ahamiyat kasb etadi.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta'biri bilan aytganda: “ Moliya – bu o'zbek tilida “xazina” degani. Xazinaning o'zi nima? Davlatning xazinasini, uning daromad va buromadini, bugungi va ertangi kunini belgilaydigan boylik”¹⁰.

Moliyaning taqsimlash funksiyasi yordamida davlat faqatgina milliy daromadni qayta taqsimlashga emas, balki ishlab chiqarishga, kapitalning jamg'arilishiga, iste'mol sohasiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shu ma'noda, moliya iqtisodiyotning davlat va xususiy sektorlarini, ishlab chiqarish va ijtimoiy infrastrukturani, ilmiy-texnika taraqqiyotini va hokazolarni rivojlantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Moliyani nazorat funksiyasining asosini moliyaviy resurslarning harakati tashkil etadi. Ana shu harakat yo'nalishiga bog'liq holda u jamiyatning pul mablag'larini taqsimlashda qanday nisbatlar vujudga kelayotganligi, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar ixtiyoriga moliyaviy resurslarning o'z vaqtida kelib tushishi qanday ta'minlanayotganligi xususida ma'lumotga ega bo'lishi lozim. Agar moliyaning nazorat funksiyasi amaliyotda to'g'ri yo'lga qo'yilmasa, moliya taqsimlash funksiyasi samaradorligini baholash qiyin kechadi. Bunday holat yuqoridagi har ikkala funksiyaning muvofiqlashtirilishi kerakligini ko'rsatadi.

Bozor munosabatlariga o'tish sharoitida moliyaning nazorat funksiyasi ijtimoiy va xususiy ishlab chiqarishning dinamik rivojlanishini ta'minlashga, ilmiy-texnika taraqqiyotini jadallashtirishga, milliy xo'jalikning barcha bo'g'inlarida ish sifatini uzluksiz yaxshilashga yo'naltirilgan. U ishlab chiqarish va ishlab chiqarishdan tashqari sohalarni to'liq o'ziga qamrab oladi. Iqtisodiy rag'batlantirishni yo'lga qo'yish, moddiy, mehnat, moliyaviy resurslar va tabiiy boyliklardan oqilona va tejamkorlik bilan foydalanish, ishlab chiqarishga bog'liq xarajatlar va yo'qotishlarni qisqartirish, xo'jasizlik va isrofgarchilikning oldini olish

¹⁰Karimov I.A. Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik to'g'risi-
“O'zbekiston” nashriyoti, 2005-yil, 516 bet.

da.-T.:

moliyaning nazorat funksiyasi maqsadlaridan hisoblanadi. Moliyaning nazorat funksiyasiga xos muhim vazifalardan biri bu moliyaviy masalalar bo'yicha qonunchilikning aniq bajarilishini, byudjet tizimi, soliq xizmati, banklar oldidagi moliyaviy majburiyatlar, shuningdek, hisob-kitoblar va to'lovlar bo'yicha xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasidagi majburiyatlarning o'z vaqtida bajarilishi va to'g'ri olib borilayotganini tekshirish hisoblanadi.

O'zbekiston uchun davlat mustaqilligini qo'lga kiritgan dastlabki kunlardan oq iqtisodiy mustaqillikka erishish, ayniqsa, iqtisodiy sohada o'zimizga xos yo'lni, ichki va tashqi siyosat yo'nalishlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirish eng muhim vazifa sanaldi. Ushbu vazifaning to'g'ri bajarilishi natijasida, iqtisodiy islohotlarni ro'yobga chiqarib borish bilan birga, O'zbekistonning boshqaruv, moliya, kredit tizimlari ham shakllana boshladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi bilan mamlakatimiz moliya siyosatining huquqiy asoslari belgilab berildi, moliyaviy tizim rivojining yo'nalishi ko'rsatib berildi. Moliya, byudjet va pul-kredit sohasida amalga oshirib kelinayotgan izchil va oqilona siyosat tufayli mamlakatimizda mukammal moliya-kredit tizimi yaratildi.

Ma'lumki, har qanday davlatning moliyaviy faoliyati, eng avvalo, davlat byudjetini shakllantirish, uning ijro etilishini ta'minlash, soliq siyosatini amalga oshirish, bank-kredit tizimlarini samarali ishlatish, pul muomalasi barqarorligiga erishish kabi sohalarni qamrab oladi. Chexiya Respublikasidagi davlat moliya tizimi sezilarli darajada markazlashgan. Tizim davlat byudjeti (markaziy hokimiyat organlari) va mahalliy hokimiyat va byudjetlarning byudjetlaridan, ijtimoiy himoya fondlaridan va byudjetdan tashqari fondlardan iborat. Barcha operatsiyalar markaziy hukumat byudjeti hisobidan amalga oshiriladi va davlat resurslarining aksariyati markaziy hukumat organlari orqali qayta taqsimlanadi.¹¹


Respublikamizda ham mustaqillikka erishilgandan keyin, ushbu yo'nalishlarda tub islohotlar amalga oshirildi. Eng avvalo, bu sohada

¹¹ <https://www.scopus.com> Agnieszka Jachowicz. Public finance consolidation in Czech Republic and Poland – what after crisis?. Procedia – Social and Behavioral Sciences. Vol. 220, May 2016, Pages 142-149.

O'zbekistonning o'z milliy qonunchiligi yaratilganligi, o'z milliy pul birligimiz so'mning muomalaga kiritilganligi, soliq qonunlarining takomillashtirilganligi va soliq organlari tizimi yaratilganligi, bank faoliyati va bank hamda moliya tizimida tub o'zgarishlar sodir bo'lganligini qayd etmoq kerak.

Iqtisodiyot bozor munosabatlariga o'tishi bilan byudjetning daromad tushumlarini soliqlar va soliqqa kirmaydigan to'lovlar yordamida qoplashga ehtiyoj tug'ildi, davlatning korxonalar, tashkilotlar, aholi bilan byudjetni shakllantirish paytidagi o'zaro munosabatlari iqtisodiy qonunlar asosida izga solina boshladi. O'zbekiston Respublikasining «Soliq kodeksi»ning, «Byudjet kodeksi»ning, «Markaziy Bank to'g'risida»gi, «Soliqlar to'g'risida»gi, «Sug'urta to'g'risida»gi, «Valyutani tartibga solish to'g'risida»gi, «Qimmatli qog'ozlar va fond birjalari to'g'risida»gi, «Chet el investitsiyasi va investorlar huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi, «Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida»gi, «Davlat byudjetining g'azna ijrosi to'g'risida»gi qonunlari va boshqa qonunlarning qabul qilinishi moliyaviy munosabatlarni tartibga solishda, moliyaviy tizimning mustahkamlanishida hamda uning samarali ishlashida muhim ahamiyatga egadir.

Yuqoridagi bayon qilinganlarni umumlashtirib, quyidagi xulosalarni shakllantirishimiz mumkin:



1.1-rasm.Moliya haqidagi ba'zi bir xulosalar¹²

¹²Iqtisodiy ma'lumotlar asosida talaba tomonidan mustaqil tayyorlandi.

Iqtisodiyot bozor munosabatlariga o'tishi bilan byudjetning daromad tushumlarini soliqlar va soliqqa kirmaydigan to'lovlar yordamida qoplashga ehtiyoj tug'ildi, davlatning korxonalar, tashkilotlar, aholi bilan byudjetni shakllantirish paytidagi o'zaro munosabatlari iqtisodiy qonunlar asosida izga solina boshladi.

1.2. Davlat moliyasi barqarorligini ta'minlashning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati

Zamonaviy iqtisodiy dunyo aralash iqtisodiyot dunyosidir. Bu qoida o'ziga xos o'zgarmas haqiqat hisoblanadi va uni inkor etish mumkin emas. Dunyoning hech bir rivojlangan mamlakatida jamiyat ustidan bozorning "mutlaq hukmron" bo'la olmaydi. Shunga qaramasdan, barcha bozor qonunlarining harakati obyektiv bo'lib, ularni bekor qilib bo'lmaydi. Xuddi shuningdek, bozor institutlari nomenklaturasining kengayishi, ular o'rtasidagi aloqalarning murakkablashuvi, yangi tizimlarning (evolyutsiya yoki taraqqiyot qonunlariga muvofiq ravishda) shakllanishini ham rad etib bo'lmaydi. Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga davlatning ta'siri quyidagi maqsadlar uchun zarur:

- hayotiy faoliyatning umumiy sharoitlari va iqtisodiy qarorlarning amalga oshirilish asoslarini, jamiyatning xavfsizligini, mulkka egalik qilish huquqi va shaxsning erkin rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan huquqiy rejim o'rnatish va uni himoya qilish, samarali raqobatni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish davlat uchun har doim zarur;

- barqarorlashtiruvchi tadbirlarni amalga oshirish (davlat iqtisodiy o'sishning sur'atlarini, inflatsiya va bandlik darajasini tartibga solib turishi, iqtisodiyotning tarmoq va mintaqaviy tuzilmasidagi ilg'or o'zgarishlarni rag'batlantirishi, tashqi iqtisodiy muvozanatni va milliy valyutaning kursini qo'llab-quvvatlashi lozim);

- resurslarning ijtimoiy yo'naltirilgan qayta taqsimlanishini amalga oshirish (davlat jamiyat uchun zarur bo'lgan, lekin xususiy sektor shug'ullanmaydigan ishlab chiqarish tizimini yo'lga qo'yish, ish haqi, pensiyalar, nafaqalarning

minimal darajasini kafolatlashi, ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolarga yordam berishi, qat'iylashtirilgan daromadlarning indeksatsiyasini amalga oshirishi zarur).

Rivojlangan har qanday davlat yirik mulkka mamlakat milliy boyligining katta qismiga ega bo'ladi. Bu mulk, asosan, moddiy- buyumlar shaklida (tabiiy boyliklar, binolar, inshootlar, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalari, muzeylar, qo'riqxonalar, davolash manbalari, kutubxonalar, oltin zaxiralari va h.k.) mavjud bo'lib, o'zining moljallanganligiga ko'ra ular davlat boshqaruvi va iqtisodiy tartibga solishda joriy ehtiyojlarni to'lash uchun ishlatilmasligi kerak. Ma'lumki, hozirgi va kelajak avlodga moljallangan milliy boyliklar behuda ishlatilmaydi, aksincha, ko'paytirib boriladi. Shuning uchun ham davlatning haqiqiy boyligi uning markazlashtirilgan pul fondidan, ya'ni davlat moliyasining moddiy asosidan iborat ekanligi ma'lum bo'ladi. Barcha zamonaviy iqtisodiy makon uchun turli-tuman pul oqimlarining harakati va ularning bir-birlari bilan qo'shilib ketishi, o'z o'lchamini bo'yicha turlicha bo'lgan pul fondlarini (shaxsiy, jamoa, kredit, rezerv, valyuta, sug'urta, byudjet, markaziy, mintaqaviy, homiylik va boshqalar) shakllantirish va ulardan foydalanish xosdir. Ularning barchasi yagona real manba mamlakat ichida va xorijda shu yilning o'zida yaratilgan qo'shilgan qiymat hisobidan oziqlanadi. Bu fondlarni qayta taqsimlashning tartibi va tarkibiy tuzilmasini, ya'ni davlat uning qancha qismini o'ziga olishi va undan qanday foydalanishi, milliy xo'jalik takror ishlab chiqarishining proporsiyalari, ijtimoiy sohani ta'minlash, zaruriy rezervlarni yaratish, milliy xavfsizlikni ta'minlash imkoniyatlari va boshqalarni belgilab beradi. Hozirgi paytda dunyoning sanoati taraqqiy etgan mamlakatlarida markazlashtirilgan pul fondlarining jami hajmi YaIMning o'rtacha 30 foizdan 50 foizgacha tashkil etadi. Shunday qilib, qolgan barcha pul oqimlari harakatini tartibga solishning ichki imkoniyati va boshqa har qanday pul fondlarini shakllantirish sharoitlariga ta'sir ko'rsatish zamonaviy davlat moliyasi miqdoriy xarakteristikasiga borib taqaladi. Biroq, rivojlanayotgan dunyo, shuningdek o'tish iqtisodiyotiga ega bo'lgan mamlakatlar moliyasi uchun bu sifatlar, ularning bunday ko'lami xos emas, albatta. Bu mamlakatlarda tegishli raqamlar YaIMga nisbatan 11—17% atrofida tebranadi va

aynan shu raqamlarning o'zi davlat tomonidan bu jarayonga aralashuvning yetarli darajada faol emasligidan dalolat beradi¹³.

Bu jarayonlarning yanada rivojlanish tendensiyalari to'g'risida gapirilganda, qayd etish kerakki, bu o'rinda davlatning tartibga solish roli uzluksiz yuqoriga o'sib boruvchi to'g'ri chiziq sifatida qaralmaydi. Chunki rivojlangan xorij mamlakatlarida xususiy subyektlar daromadlarini davlat daromadlariga "oqib o'tishi"ning o'ziga xos bo'lgan iqtisodiy chegarasiga erishilgan. Shunga muvofiq ravishda, G'arbning nazariy bilimlari tegishli hukumatlarni davlat ta'sirini qisqartirish yo'lidan borishlari uchun faol va muvaffaqiyatli tarzda harakat qilmoqda.

Aksincha, dunyoning rivojlanayotgan mamlakatlari va bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlarning kelajak manzarasi boshqacharoqdir. Bu mamlakatlarda bozor tuzilmalari va institutlarining rivojlanishi va mustahkamlanishi bilan yondosh ravishda davlatning moliyaviy tartibga solishi ham kuchayib borishi kerak. Ularning tegishli iqtisodiy chegaraga yetishiga hali ancha bor. Turli ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarda moliyaning ahamiyatini to'liq idrok etish uchun davlat xarajatlari va davlat daromadlarining o'rni va vazifasini atroflicha tahlil qilib chiqmoq lozim.

Dastlab, davlat moliyasining tub ijtimoiy mohiyatini anglash uchun davlat xarajatlari tavsifiga murojaat qilish kerak. Chunki aynan davlat xarajatlari davlat moliyasining ijtimoiy vazifasi nimadan iborat ekanligini aniq ko'rsatadi. Shunga mos ravishda, aynan davlat xarajatlarining tarkibi, tarkibiy tuzilmasi va hajmi moliya tizimi faoliyatining natijalarini o'zida aks ettiradi va bu tizim ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonida o'z funksiyalarini bajarayaptimi yoki yo'qmi, degan muammoni aniqlashga imkon beradi. Takror ishlab chiqarish jarayonida davlat moliyasining rolini aniqlab olish uchun ularni bir necha belgilar bo'yicha klassifikatsiya qilish mumkin. Agar davlat xarajatlariga tovarlar yoki mehnatda ifodalangan xizmatlar qarama-qarshi turadigan bo'lsa, u holda davlat pul mablag'lari oqimlarining boshqa ne'matlarga o'ziga xos tarzda

13 Хассен Э. Послевоенная экономика США. — М.: Прогресс, 1966. сс.84,

transformatsiyalashuvi sodir bo‘ladi. Shu munosabat bilan bunday xarajatlarni transformatsion xarajatlarga kiritish mumkin. Ularning orasidan quyidagilarni ajratib ko‘rsatish lozim:

- davlat iste‘moli (davlat sektori ishchilarining ish haqi, joriy ehtiyojlarni qoplash uchun davlat tomonidan sotib olingan tovarlar uchun to‘lovlar, ishlab chiqarishni dotatsiyalashtirish; davlat qarziga xizmat ko‘rsatish, byudjetlararo subsidiyalar va shu yerda ko‘rsatilgan maqsadlar uchun foydalaniladigan ssudalar);

- davlat investitsiyalari (davlat korxonalari hamda tashkilotlarining asosiy kapitali va aylanma fondlarining o‘sgan qismiga qo‘yilmalar, davlat zaxiralari va rezervlari, shuningdek uzoq muddatga mo‘ljallangan davlat byudjeti kreditlarini yaratish).

Shunday qilib, iqtisodiy resurslar cheklangan sharoitda transformatsion xarajatlar davlatdan tashqari sektorda tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish hajmini bevosita o‘zgartiradiki, bulardan jamiyat vaziyatga qarab foydalanadi va bir vaqtning o‘zida barcha ehtiyojlarning tarkibiy tuzilmasiga o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi.

Agar davlat xarajatlari turli xildagi pensiyalarni (yosh bo‘yicha, nogironlik, boquvchisini yo‘qotganda, alohida xizmatlari uchun) va nafaqalarni (bolalarga, vaqtinchalik mehnat qobiliyatini yo‘qotganda, ishsizlik bo‘yicha) to‘lashga yo‘naltirilsa, mablag‘ berishning o‘ziga xos transfert shakli sodir bo‘ladi. Bunda mablag‘lar soliq to‘lovchilardan shu to‘lanmalarni oluvchilarga beriladi. Bunday holda yangi qiymat yaratilmaydi. Bunday xarajatlar transfert xarajatlar deyiladi. Bu xarajatlar jamiyat daromadlari a‘zolar o‘rtasida taqsimlanishini o‘zgartiradi. Davlat xarajatlari yana joriy (davlat iste‘moli va transfertlar) hamda kapital xarajatlarga (davlat investitsiyalari) bo‘linadi. Bunday bo‘linish takror ishlab chiqarish ko‘lamlari o‘sishiga moliyaning ta‘sirini baholash uchun muhimdir. Shuningdek, davlat xarajatlarini insonlarga (shaxsiy daromadlar) va kapitalga (joriy qoyilmalar va investitsiyalar) xizmat qilish me‘zoni bo‘yicha ham klassifikatsiya qilinishi mumkin. Bu narsa ijtimoiy mahsulot ishlab chiqarish va

uni iste'mol qilishda mazkur ulushlarni alohida-alohida hisobga olishga imkon beradi.

Davlat xarajatlarini guruhlariga ajratishda funksional prinsip mamlakat taraqqiyotining ichki muammolarini hal qilish va dunyo hamjamiyati bilan o'zaro munosabatlariga doir faoliyatini (ijtimoiy, iqtisodiy, tadqiqotchilik, boshqaruvchilik, tashqi siyosiy va boshqalar) namoyish qilishi mumkin. Ana shu narsalarning o'zi ma'lum tizimga xos ustuvor yo'nalishlarni aks ettiradi va davlat siyosati ta'sirchanligini baholashga imkon beradi. Masalan, davlatning ijtimoiy funksiyalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlari aholi kam ta'minlangan qatlamlarining tabaqalashtirish, tibbiy xizmat, uy-joy, kafolatlangan minimal pensiya va nafaqalar olishga tegishli sharoitlarni yaratadi, ijtimoiy munosabatlar barqaror bo'lishini ta'minlaydi. Bulaming barchasi talabning hajmi va tarkibiy tuzilmasiga keskin ta'sir ko'rsatadi va bu narsa quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi:¹⁴

- ijtimoiy subsidiya oluvchilar aholining moddiy ne'matlar iste'moli qismiga nisbatan barqaror to'lovga qobiliyatli talabning barqarorligini ta'minlaydi;

- ijtimoiy-madaniy soha tashkilotlarini joriy saqlash uchun tovarlar va xizmatlarni davlat tomonidan sotib olinishi bozorning juda ko'p bo'g'inlarida talab va taklif o'rtasidagi muvozanatga o'z ta'sirini ko'rsatadi;

- maorif, sog'liqni saqlash, madaniyat va ijtimoiy ta'minot obyektlarining kengaytirilishi, uy-joy qurilishiga davlat dotatsiyalari bilan birgalikda, faqat qurilish materiallariga emas, balki qurilish industriyasi bilan bog'liq sanoatning boshqa alohida tarmoqlari uchun ham chuqur bozorni yaratadi, uzoq muddatli foydalanishga mo'ljallangan narsalar uchun talabni oshiradi.

Davlat moliyasining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish, davlat xarajatlarini amalga oshirish, davlat maqsadli tushumlarini to'plash, davlat moliyaviy resurslarini jamlash, foydalanish, taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonlari orqali to'liqroq ifodalanadi. Unga boshqacha ta'rif berish ham mumkin: davlat va korxonalarning pul fondlarini

¹⁴ Vahobov A, Malikov T. "Moliya" T.: Noshir 2011 yil. 107-bet.

shakllantirish, taqsimlash va foydalanish borasidagi shakl va metodlar tizimiga moliya tizimi deyiladi. “Moliya tizimi” tushunchasi keng ma’nodagi moliya tushunchasining taraqqiyoti natijasidir.

1.3. O‘zbekiston Respublikasida Davlat moliyasini tashkil etish va boshqarishning taraqqiyot bosqichlari va tarkibiy tuzilishi

Iqtisodiy munosabatlar jarayonida turli pul fondlaridan shakllanadigan va foydalaniladigan moliyaviy munosabatlarning turli sohalari majmuiga moliya tizimi deyiladi. Mamlakatda bozor islohotlarining amalga oshirilishi va mohiyatiga ko‘ra butunlay yangi bo‘lgan iqtisodiy va moliyaviy siyosatning hayotga tatbiq etilishi moliya tizimining sohalari va bo‘g‘inlariga nisbatan obyektiv ravishda yangicha yondashuvni taqazo etdi.¹⁵ Unga muvofiq ravishda, dastlab, moliya tizimi quyidagi ikki sohaga bo‘linadi:

- davlat moliyasi va mahalliy moliyasi;
- xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliyasi.

O‘z navbatida, moliya tizimining har bir sohasi pul fondlari va daromadlarni shakllantirishning aniq shakllari va metodlariga bog‘liq ravishda bir necha bo‘g‘inlardan tashkil topadi. Masalan, davlat moliyasi va mahalliy moliya quyidagi bo‘g‘inlardan iborat bo‘lishi mumkin:


- Davlat byudjeti;
- Davlat maqsadli jamg‘armalari;
- Davlat krediti.

Shuningdek, o‘z navbatida xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliyasi quyidagi bo‘g‘inlardan iborat:

- tijorat korxonalari va tashkilotlari moliyasi;
- moliyaviy vositachilar moliyasi;
- notijorat tashkilotlari moliyasi.

¹⁵ Vahobov A, Malikov T. “Moliya” T.: Noshir 2011 yil. 62-bet.

Moliya tizimining guruhlarga bo‘linishi YaIMni shakllantirish, taqsimlash va qayta taqsimlashda, daromadlarni shakllantirish va ulardan foydalanishda iqtisodiy munosabatlar subyektlarining bir-birlaridan farqli ravishda ishtirok etishi bilan belgilanadi. Moliya tizimining har bir sohasi va bo‘g‘iniga pul fondlari va daromadlarini shakllantirish va ulardan foydalanishning o‘ziga xos shakllari va metodlari tegishli bo‘lib, ular moliya tizimining umumiy xarakterini belgilab beruvchi unsurlar sifatida e’tirof etiladi. Quyida keltirilgan 1-rasm orqali O‘zbekiston Respublikasida shakllanirilgan moliya tizimining umumiy tuzilishini ko‘rishimiz mumkin:



1.2-rasm. O‘zbekiston Respublikasi moliya tizimi¹⁶

Yuqoridagi rasm orqali biz mamlakatimidagi moliya tizimini ko‘rishimiz mumkin. Unda asosiy o‘rinni davlat moliyasi hamda mahalliy moliya egallaydi. Chunki davlat moliyasi keng tushuncha bo‘lib u bir vaqtning o‘zida o‘zining tarkibiy qismlarini hamda xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliyasi bilan

¹⁶ Malikov T, Rustamov D. Moliya chizmalarda o‘quv qo‘llanma T.: Iqtisod-moliya 2012 yil. 24-bet.

chambarchas bog‘liq bo‘lib u ham ko‘p tomonlama davlat moliyasini taqozo etadi. O‘zbekiston Respublikasida yuqoridagi moliya tizimi chuqur o‘ylangan iqtisodiy siyosat hamda takomillashib borayotgan byudjet-soliq siyosatining natijasidir.

O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti (Davlat byudjeti) - davlatning davlat vazifalari va funksiyalarini moliyaviy jihatdan ta‘minlash uchun mo‘ljallangan markazlashtirilgan pul jamg‘armasi.¹⁷ Bir qator ilmiy adabiyotlarda davlat byudjetining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini yoritishda uning:

- iqtisodiy kategoriya sifatida;
- moddiy tushuncha sifatida;
- huquqiy kategoriya sifatida mavjud ekanligi va amal qilishi nazarda tutilgan.

- Iqtisodiy kategoriya sifatida davlat byudjeti – davlat bilan yuridik va jismoniy shaxslar o‘rtasida mamlakatda yaratilgan yalpi ichki mahsulotni, uning faol qismi bo‘lgan milliy daromadni (qisman milliy boylikni) qayta taqsimlash yuzasidan kelib chiqadigan pul munosabatlari tizimi bo‘lib, ular natijasida iqtisodiyotni, ijtimoiy-madaniy sohalarni, mudofaa va davlat boshqaruvi ehtiyojlarini moliyalashtirishga mo‘ljallangan pul fondi davlat byudjeti tashkil topadi va maqsadga muvofiq tarzda ishlatiladi.

Moddiy tushuncha sifatida davlat byudjeti – markaziy hukumat va tegishli darajadagi mahalliy hokimiyat idoralari faoliyatini ta‘minlovchi, ular oldidagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik vazifalarni bajarishga mo‘ljallangan markazlashtirilgan pul mablag‘lari fondidir.

Huquqiy kategoriya sifatida davlat byudjeti – markaziy va tegishli mahalliy hokimiyat va ijroiya organlari tomonidan ishlab chiqiladigan va belgilangan tartibda tasdiqlanadigan, markazlashtirilgan pul mablag‘lari fondini shakllantirish, taqsimlash va maqsadli ishlatishni ko‘zda tutuvchi asosiy moliyaviy reja, yuridik xujjatdir. Qonunlarda belgilangan tartibda va muddatlarda har moliya yili uchun (O‘zbekiston Respublikasida moliya yili kalendar yiliga mos keladi, lekin dunyo

¹⁷ O‘zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi. 2013-yil 26-dekabr. 3-modda.

mamlakatlarida ularning an'analari va mamlakat hayotidagi muhim, hal qiluvchi tarixiy sanalariga muvofiq, byudjet yili kalendar yiliga mos kelmasligi mumkin) tuziladi, ko'rib chiqiladi, tasdiqlanadi va ijro etiladi. Byudjet daromadlari davlatning markazlashtirilgan moliyaviy resurslari bir qismidan iborat bo'lib, davlatning funksiyalarini bajarish uchun zarurdir. Ular pul mablag'lari fondlarini shakllantirish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy (moliyaviy) munosabatlarni o'zida ifoda etadi va turli darajadagi hokimiyat organlarining ixtiyoriga kelib tushadi.


Davlat maqsadli jamg'armalari iqtisodiy kategoriya sifatida, jamlanma byudjet tushunchasiga chambarchas bog'liq holda ifoda etiladi. Sababi, byudjetdan tashqari fondlarda jamlanadigan mablag'lar, o'z o'rnida jamlanma byudjet mablag'larining tarkibiy qismi hisoblanadi. Demak, jamlanma byudjet - davlat pul mablag'larining (shu jumladan, davlat maqsadli jamg'armalari mablag'larining) markazlashtirilgan jamg'armasi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlari uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.¹⁸

Yuqoridagi ta'rifdan kelib chiqib quyidagicha fikr bildirishimiz mumkin. Byudjetdan tashqari davlat jamg'armalari - bu yuqori va mahalliy davlat hokimiyati organlari ixtiyoridagi qat'iy maqsadli xarakterga ega bo'lgan moliyaviy mablag'lar yig'indisidir. Byudjetdan tashqari davlat jamg'armalari har bir davlat moliya tizimining alohida ajralmas bo'g'ini hisoblanadi. Ularda moliyaviy mablag'larning shakllanishi, taqsimlanishi va mavjud resurslardan maqsadli foydalanilishi bevosita moliyaviy me'yoriy-huquqiy asos bilan muvofiqlashtiriladi va tartibga solinadi.

Byudjetdan tashqari davlat jamg'armalari o'z faoliyat ko'lamidan kelib chiqib, bir qator vazifalarni amalga oshiradi. Umuman olganda, vazifalarning ko'lami ko'p. ammo eng asosiylari sifatida quyidagilarni sanab o'tish mumkin. Xususan:

¹⁸ Davlat moliyasi tizimi. 2-J. – T.: O'zbekiston. 2003.

- iqtisodiyotning ustuvor sohalarini qo‘shimcha moliyaviy resurslar bilan ta'minlash. Bunda ayrim tarmoqlarga xos bo‘lgan va faqat shu sohani qamrab oluvchi fondlar nazarda tutiladi. Misol uchun, ekologiya fondlari, ilmiy tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlari (ITTKI) va boshqalar;



1.3-rasm. Davlat maqsadli jamg‘armalarining ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlariga ko‘ra guruhlanishi¹⁹

¹⁹ Qosimova G.A. “Byudjetdan tashqari fondlar”. O‘quv qo‘llanma. T.:IQTISOD-MOLIYA 2009-yil.

Ya'ni davlat byudjeti qamroviga kirmaydigan ayrim tarmoq va sohalarni maxsus fondlar tashkil etish orqali rivojlantirib borish va buning negizida ijtimoiy infratuzilmani yaxshilash. Davlat maqsadli jamg'armalarining ijtimoiy-iqtisodiy xarakter kasb etishiga ko'ra tasniflanishini quyidagi rasm orqali ham ko'rib chiqamiz.

Davlat krediti moliya tizimining davlat moliyasi va mahalliy moliya sohasining o'ziga xos bo'g'ini hisoblanadi. Uning o'ziga xosligi davlatning markazlashtirilgan fondlariga mablag'larni jalb qilish bo'yicha moliya-kredit munosabatlariga doir alohida shakllari bilan belgilanadi. Davlat krediti davlat, yuridik va jismoniy shaxslar o'rtasidagi pul munosabatlarining o'ziga xos alohida shaklidan iboratdir. Bunda davlat, asosan, mablag'larni qarzga oluvchi va shuningdek, kreditor va garant (kafil) sifatida ham maydonga chiqadi.

Davlat kreditida miqdoriy jihatdan mablag'larni qarz oluvchi sifatida davlat faoliyati ustunlik qiladi. Davlatning kreditor sifatidagi operatsiyalari, ya'ni davlat yuridik va jismoniy shaxslarga ssudalar taqdim qilganda yoki kafil bo'lganda, ancha tor bo'ladi. Shunga qaramasdan, bozor iqtisodiyoti sharoitida byudjetdan moliyalashtirish ham qaytariluvchanlik va to'lovlilik (haq asosida) sharti bilan amalga oshirilsa, keng rivoj topishi mumkin. Chexiya Respublikasidagi davlat moliya tizimi sezilarli darajada markazlashgan. Tizim davlat byudjeti (markaziy hokimiyat organlari) va mahalliy hokimiyat va byudjetlarning byudjetlaridan, ijtimoiy himoya fondlaridan va byudjetdan tashqari fondlardan iborat. Barcha operatsiyalar markaziy hukumat byudjeti hisobidan amalga oshiriladi va davlat resurslarining aksariyati markaziy hukumat organlari orqali qayta taqsimlanadi.²⁰

Hozirgi sharoitda davlat kreditining zarurligi davlat xarajatlari davlat o'z daromadlari ba'zasini kengaytirish imkoniyatlariga nisbatan yuqori sur'atlarda o'sishi bilan bog'liq. Bu narsa byudjet defitsiti sharoitida rejalashtirilgan byudjet xarajatlari qoplanishini ta'minlaydi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida pul-kredit va moliyaviy siyosatlarning bir-biri bilan o'zaro bog'liq holda amalga oshirilishi

²⁰ <https://www.scopus.com> Agnieszka Jachowicz. Public finance consolidation in Czech Republic and Poland – what after crisis?. Procedia – Social and Behavioral Sciences. Vol. 220, May 2016, Pages 142-149.

moliya tizimining davlat moliyasi va mahalliy moliya bo'g'ini to'g'risidagi an'anaviy tasavvurlarni kengaytirishi va zamonaviy talablarga muvofiq ravishda Markaziy bank tizimini ham uning tarkibiga qo'shishni taqazo etadi.

Davlat krediti iqtisodiy atama sifatida davlat moliyasi, qimmatli qog'ozlar bozori, korxonalar va uy xo'jaliklari moliyasi, iqtisodiyot nazariyasi, makroiqtisodiy statistika, iqtisodiy tahlil, xalqaro moliyaviy munosabatlar, milliy iqtisodiyot, moliya huquqi va boshqa iqtisodiy atamalar bilan bog'liq. Davlat krediti moliya tizimining muhim bo'g'ini sanaluvchi kreditning tarkibiy qismini tashkil qiladi. Muddatlilik, qaytarilishi lozim ekanligi, haq olish evaziga berilishi kabi xususiyatlar har qanday kreditga, jumladan davlat kreditiga ham xosdir. Ammo shu bilan birga davlat krediti va bank krediti o'rtasida iqtisodiy hamda huquqiy jihatdan jiddiy farqlar mavjud.

Davlat krediti iqtisodiy jihatdan kapitalni ishlab chiqarishga qaratilmagan maqsadlarda, ya'ni davlat byudjeti taqchilligini qoplash uchun ishlatiladi va ishlab chiqarish harakati doirasida qatnashmaydi. Davlat krediti foizlari odatda soliqlar yoki yangi davlat qarzlarini hisobiga qoplanadi, shu ma'noda, davlat krediti oldindan olingan soliqlar deyilishi mumkin.

Bank tomonidan beriladigan kredit esa qoida tariqasida, ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etadi, muayyan foyda olinishini ta'minlaydi va shu yo'l bilan faqat kreditning o'zini emas, balki uning foizlarni ham qoplash imkoni paydo bo'ladi. Huquqiy jihatdan olganda bank kreditida bank qarz beruvchi, jismoniy va yuridik shaxslar esa qarz oluvchi sifatida qatnashadi. Davlat kreditida esa davlat qarz oluvchi, yuridik va jismoniy shaxslar qarz beruvchi sifatida ishtirok etadi. Agar bank krediti munosabatlari natijasida bank va kredit oluvchi yuridik yoki jismoniy shaxs o'rtasida kredit shartnomasi tuzilsa va bu munosabatlar fuqarolik qonunlari bilan tartibga solinsa, davlat kreditiga oid munosabatlar mamlakat ichki qarzlarini bilan bog'liq bo'lgan moliyaviy -huquqiy munosabatlardan iborat bo'ladi.

Davlat krediti yuridik va jismoniy shaxslar mablag'laring davlat tomonidan vaqtincha ishlatilib turilishiga aytiladi. Davlat krediti vaqtincha davlat tasarrufiga tushadigan va iqtisodiyotni rivojlantirish, byudjet taqchilligi va boshqa

ehtiyojlarning ustuvor yo‘nalishlarini moliyalashtirish uchun foydalaniladigan qo‘shimcha pul mablag‘larining to‘planishini ta‘minlaydi.

Davlat kreditida davlat qarz oluvchi, yuridik va jismoniy shaxslar esa qarz beruvchi sifatida namoyon bo‘ladi. Davlat krediti vositasida yuridik va jismoniy shaxslarning mablag‘larini jalb etish turli shakllarda, avvalambor, davlat zayomlari, pul majburiyatlari, va boshqa qimmatli qog‘ozlarni chiqarish va ularni joylashtirish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Bozor munosabatlari rivojlanishi va qimmatli qog‘ozlar bozorining yuzaga kelishi sharoitlarida davlat kreditining muhim shakli yuridik shaxslar orasida joylashtiriladigan davlat qisqa muddatli zayomlari hisoblanadi.

Davlat krediti deganda ixtiyoriylik asosida yuridik va jismoniy shaxslar ixtiyorida bekor turgan pul mablag‘larini vaqtincha foydalanish uchun davlat ehtiyojlariga jalb etish bilan bog‘liq bo‘lgan pul munosabatlari nazarda tutiladi. Davlat shu yo‘l bilan jalb etilgan daromadlar hisobiga byudjetdagi taqchillikni qoplaydi, iqtisodiyot tarmoqlarini imtiyozli kredit bilan ta‘minlaydi va katta ahamiyatga ega bo‘lgan ehtiyojlar uchun sarflaydi.

I-bob bo‘yicha xulosa

Davlat moliyasi davlatning iqtisodiyotni tartibga solishdagi asosiy dastaklaridan biri bo‘lib, u tarkibiga davlat byudjeti, davlat maqsadli jamg‘armalari, davlat kreditini oladi. Bu sohaning nazariy asoslari mamlakat moliya tizimi holatini ko‘rsatib beradi. Bitiruv malakaviy ishining nazariy qismining xulosasi shundan iboratki, davlat moliyasi davlat ixtiyorida pul jamg‘armalarining tashkil etilishi, taqsimlanishi va sarflanishi sohasidagi moliyaviy munosabatlar yig‘indisi bo‘lib, davlat moliyasining mablag‘lari umummilliy manfaatlar yo‘lida sarflanadi, davlatning funksiyalarini bajarishga xizmat qiladi.

Aynan mamlakatda tarkib topgan davlat moliya strukturasi orqali mamlakatning YaIMi, davlat byudjeti, davlat maqsadli jamg‘armalari

mablag'larining shakllantirilishi, jamg'arilishi, sarflanishi, taqsimlanishi va qayta taqsimlanish jarayonlari ifodalanadi. Jamiyat o'z holatini yangilab borgani, insonlar yangilikga intilib borayotgani sari davlat moliyasi ham sayqallanib yangilanib boradi. XIV asrda mavjud moliya tizimi va hozirgi moliya tizim o'rtasida qanchalik farq bo'layotgan bo'lsa, kelgusida tarkib topayotgan moliyaviy tizimda ham davlatning yangi moliyaviy resurslari, ularni boshqarish richagi shakllanib boradi.

Davlat moliyasining nazariy jihatdan ifoda etsak, tom ma'noda davlat va unga aloqador subyektlar o'rtasida vujudga keladigan moliyaviy munosabatlarni tizimlashtirishdir.

Buning sababi shu bilan izohlanadiki: jamiyat rivojlangani sayin barcha iqtisodiy munosabatlar, shu jumladan, moliyaviy munosabatlar ham rivoj topib boradi va tartibga solishga ehtiyojmand bo'ladi.

II BOB. DAVLAT MOLIIYASI BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA DAVLAT MOLIIYASINING ALOHIDA BO'G'INLARI SAMARADORLIGI TAHLILI

2.1. O'zbekiston Respublikasining davlat moliyasini tashkil etish va boshqarishning amaliy holati tahlili

Davlat moliyasi tarkibida davlat byudjeti alohida ahamiyatga ega. Shundan kelib chiqib, ishimizning mazkur qismida O'zbekiston Respublikasining davlat byudjetini va uning iqtisodiy ahamiyatini tahliliga e'tibor qaratamiz.

Davlat byudjeti davlatning yirik markazlashgan pul fondi bo'lib, u davlatning funktsiyalarini bajarishga asoslangan iqtisodiy kategoriya hisoblanadi. Byudjet davlatning markazlashgan pul jamg'armalarining tashkil etilishi va davlat siyosatini amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlar yuzasidan pul munosabatlarini bildiradi. Davlat byudjeti moliya tizimi hamda davlat moliyasining asosiy bo'g'inidir.

Davlat byudjetining ahamiyati juda katta bo'lib, davlatning daromadlari va xarajatlarini o'zida mujassam etadi. Bu bilan davlat tomonidan moliyalashtiriladigan sohalarning moliyalashtirish masalalari ko'p jihatdan byudjetning barqarorligiga bog'liq. Ahamiyatli jihati shundan iboratki, byudjet daromadlarini shakllantirishda ishtirok etgan sub'ektlar individual tarzda byudjetdan manfaatdor bo'lmaydi. Bu holat qaysidir ma'noda, byudjet daromadlarini shakllantirishdagi muammolarni keltirib chiqaradi. Ko'pchilik sub'ektlar o'z faoliyatlarini yashirin tarzda olib borishga intiladi. Shuning bilan birga, mamlakat hududlari bo'yicha yig'ilgan daromadlar ularning o'z-o'ziga to'g'ridan-to'g'ri sarflanmaydi. Bu esa, hududlar o'rtasida byudjetga nisbatan turli e'tirozlarni keltirib chiqarishi mumkin. Shundan kelib chiqib, samarali byudjet-soliq siyosatini olib borish ayni paytda dolzarbdir.

Byudjet tasnifiga ko'ra davlat byudjeti daromadlar va xarajatlardan iborat, ya'ni:

- davlat byudjetining daromadlari;

- davlat byudjetining xarajatlari.

O'zbekiston Respublikasining Byudjet Kodeksiga muvofiq davlat byudjeti daromadlari:

- soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar;
- davlat aktivlarini joylashtirish, foydalanishga berish va sotishdan olingan daromadlar;
- meros, hadya huquqi bo'yicha davlat mulkiga o'tgan pul mablag'lari;
- yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek chet davlatlardan tushadigan qaytarilmaydigan pul tushumlari;
- rezident-yuridik shaxslarga berilgan byudjet ssudalarini va chet davlatlarga ajratilgan kreditlarni to'lash hisobidan to'lovlar;
- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa daromadlar hisobidan shakllantiriladi²¹.

Respublikamiz byudjet siyosatiga muvofiq davlat byudjeti ikki pog'onadan iborat ekanligiga to'xtalgan edik. Ularning har biriga muayyan daromad manbalari birlashtirilgan. Jumladan, respublika byudjeti daromadlari umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to'lovlar hisobiga shakllantirilsa, mahalliy byudjetlar daromadlari mahalliy soliqlar, yig'imlar va boshqa majburiy to'lovlar hisobiga shakllantiriladi.


Hozirgi sharoitda davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishning samarali manbai bo'lib soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar hisoblanadi (3-rasm).

Demak, respublikamizda davlat byudjeti daromadlari asosan soliqlar va ularga tenglashtirilgan majburiy to'lovlar hisobiga shakllantirilishi qonuniy mustahkamlangan. Mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining 2016-2030 yillarda 2 barobar ko'payishiga erishish uchun o'rtacha yillik o'sish sur'atlari 4,8 foiz darajasida bo'lishini ta'minlash zarur. Agar keyingi 11 yilda bu ko'rsatkich 8 foizdan yuqori bo'lib kelganini hisobga oladigan bo'lsak, bu vazifani amalga oshirish uchun mustahkam asos va zamin bo'ladi²². Ushbu maqsadga erishish

²¹ O'zbekiston Respublikasi Budjet Kodeksining 51-moddasi.

²² Karimov I.A. "Bosh maqsadimiz - mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o'zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo'l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir". "Xalq so'zi gazetasi" 2016 yil 18 yanvar.

uchun davlat siyosatining barcha vositalaridan samarali foydalanmoq kerak, ular orasida esa asosiy rol byudjet siyosatiga tegishli.



2.1-rasm. Davlat byudjeti daromadlarining asosiy manbalari²³

Davlat majburiyatlarining va ijtimoiy kafolatlarini bajarilishi nafaqat byudjet mablag'larining qanday tamoyillar va qoidalarga ko'ra shakllanishi va sarflanishiga, davlat moliyaviy resurslarini qanday boshqarishiga, balki mamlakatni rivojlantirishning strategik maqsadlariga erishishga ham bog'liq.

Davlat iqtisodiy rivojlanishi darajasi va ijtimoiy majburiyatlariga ko'ra turli mamlakatlarda YaIMning 20 dan 60 foizgacha byudjet orqali qayta taqsimlanadi.

²³ Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya. – T: "NOSHIR", 2012. – 220 b.

Ushbu ko'rsatkich Shvetsiya, Daniya, Germaniya kabi ijtimoiy yo'nalish olgan mamlakatlarda ayniqsa baland.

Dunyo mamlakatlarida davlat byudjeti daromadlarining YaIMdagi ulushini tahlili ko'rsatmoqdaki, rivojlanayotgan davlatlarga qaraganda rivojlangan davlatlarda soliq yuki darajasi yuqori. Ayniqsa, Evropa davlatlarida bu ko'rsatkich respublikamiz bilan taqqoslaganda ancha yuqoridir.

Shu o'rinda respublikamiz davlat byudjeti daromadlarini shakllantirish amaliyoti bilan tanishib chiqish maqsadga muvofiq. Hozirgi kunda respublikamiz Davlat byudjeti daromadlarining asosiy ko'rsatkichlari quyidagilardan iborat:

- davlat maqsadli jamg'armalarsiz daromadlari (soliqli daromadlar);
- davlat maqsadli jamg'armalari daromadlari;
- O'zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi daromadlari va boshqalar.

Byudjet siyosatini amalga oshirish va uning iqtisodiy o'sishga ta'sirini muhim vositasi soliqlardir. Soliq siyosati iste'mol va ishlab chiqarishga, jamg'armalar va investitsiyalarga bevosita ta'sir ko'rsatadi. O'zbekiston davlat byudjeti daromadlarining 90 foizidan ortig'i soliq tushumlari hisobiga shakllantiriladi.

O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksiga muvofiq uning hududida bir qator soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar amal qiladi. Hozirgi kunda respublikamizda amal qilayotgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar turlarini 1-jadvalda keltirib o'tamiz.

O'zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligiga asosan uning hududida 10 ta turdagi soliqlar va 9 ta turdagi majburiy to'lovlar amal qiladi. Shuningdek, soliq solishning soddalashtirilgan tartibida to'lanadigan soliqlar ham mavjudki, ular ayrim xo'jalik sub'ektlari uchun tadbiiq etiladi. Mikrofirma va kichik korxonalar, qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari, yakka tartibdagi tadbirkorlar shular jumlasidandir. Soliq siyosati tadbirkorlarni respublikamiz uchun zarur bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirishga rag'batlantirishi kerak. Haqiqatdan

ham soliq siyosati fiskal ahamiyat kasb etishi bilan birga, tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashi lozim.

2.1-jadval

O'zbekiston Respublikasida amalda bo'lgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar²⁴

T/r	Umumbelgilangan soliqlar
Soliqlar	
1.	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i
2.	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i
3.	Qo'shilgan qiymat solig'i
4.	Aktsiz solig'i
5.	Er qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar
6.	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq
7.	Mol-mulk solig'i
8.	Yer solig'i
9.	Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i
10.	Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq
Boshqa majburiy to'lovlar	
1.	Yagona ijtimoiy to'lov
2.	Fuqarolarning byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari
3.	Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar
4.	Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar
5.	Respublika yo'l jamg'armasiga yig'imlar
6.	Davlat boji
7.	Bojxona to'lovlari
8.	Ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'im
9.	Byudjetdan tashqari Umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmalar
Soliq solishning soddalashtirilgan tartibida to'lanadigan soliqlar	
1.	Yagona soliq to'lovi
2.	Yagona yer solig'i
3.	Tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliq

Respublikamizda davlat byudjeti daromadlarining asosiy qismi solikli daromadlar hisobiga shakllantiriladi. 2-jadvalda 2015-2017 yillarda O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti solikli daromadlarining asosiy ko'rsatkichlari keltirilgan.

²⁴ O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 23-moddasiga asosan tayyorlandi.

Keltirilgan jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Davlat byudjeti daromadlari umumiy summasi yildan-yilga o'sib bormoqda, ya'ni 2015 yilda 36184,9 mlrd.so'mni, 2016 yilda 41030,7 mlrd.so'mni tashkil etgani holda, 2017 yilda 44469,6 mlrd.so'mni tashkil etishi rejalashtirilgan.

2.2-jadval

O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti daromadlarining asosiy ko'rsatkichlari (2015-2017 yillar)²⁵


Ko'rsatkichlar	2015 yil		2016 yil		2017 yil	
	mlrd.so'm	foiz	mlrd.so'm	foiz	mlrd.so'm	foiz
1.To'g'ri soliqlar	8554,3	23,6	9853,6	23,1	10674,2	24,0
1.1. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i	1284,8	3,6	1215,1	3,1	1291,1	2,9
1.2. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalaridan olinadigan yagona soliq to'lovidan davlat byudjetiga ajratma	1193,1	3,3	1516,1	3,4	1613,2	3,6
1.3. Yagona soliq to'lovidan davlat byudjetiga ajratma	1067,1	2,9	1440,8	3,1	1622,8	3,6
1.4. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	3648,8	10,1	4137,4	10,0	4476,1	10,1
1.5. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan qat'iy soliq	617,0	1,7	822,3	1,8	831,7	1,9
1.6. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i	743,5	2,1	721,9	1,7	839,3	1,9
2. Egri soliqlar	19115,8	52,8	21 131,0	55,0	24285,4	54,6
2.1. Qo'shilgan qiymat solig'i	10721,7	29,6	11891,6	30,9	13422,1	30,2
2.2. Aktsiz solig'i	5528,8	15,3	6258,5	16,0	6870,8	15,5
2.3. Bojxona boji	1583,6	4,4	1 449,5	4,2	1632,2	3,7
2.4. Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq	1281,7	3,5	1531,3	3,9	2360,3	5,3
3. Mol-mulk solig'i va resurs to'lovlari	5741,8	15,9	5306,2	14,3	6049,5	13,6
3.1. Mol-mulk solig'i	1716,7	4,7	1659,3	4,6	1988,8	4,5
3.2. Yer solig'i	929,6	2,6	966,7	2,2	1102,5	2,5
3.3. Yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar	2931,8	8,1	2517,7	7,1	2746,3	6,2
3.4. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	163,7	0,5	162,5	0,5	211,9	0,5
4. Qo'shimcha foyda solig'i	548,2	1,5	4739,9	1,0	723,2	1,6
5. Boshqa daromadlar	2224,8	6,1	9853,6	6,6	2737,3	6,2
JAMI SOLIQLI DAROMADLAR	36184,9	100,0	41030,7	100,0	44469,6	100,0

²⁵ O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

Respublikamiz davlat byudjeti daromadlari tarkibida davlat maqsadli jamg'armalarsiz daromadlari (soliqli daromadlar)ning ulushi eng yuqori ahamiyatga ega bo'lib, 2015-2017 yillarda mos ravishda 47,2; 47,3 va 47,4 foizni tashkil etib, uning ulushini o'sishi kuzatilgan. Tahlil qilinayotgan yillarda davlat maqsadli jamg'armalari daromad-larining ulushi 33,3; 34,7 va 35,08 foizni tashkil etib, ushbu daromadlar ham o'sib bormoqda.

Davlat byudjeti daromadlarining tuzilishi ko'rsatmoqdaki, so'nggi yillarda byudjet daromadlari tarkibida egri soliqlarning ulushi yuqoriligicha qolmoqda. Egri soliqlarning ulushi 2017 yilda 55,0 foizni tashkil etib, 2010 yilga nisbatan qariyb 5 foiz punktga oshgan. To'g'ri soliqlarning ulushi esa o'rtacha 25 foizni tashkil etib, so'nggi yillarda daromadlar tarkibida ularning kamayish tendensiyasi kuzatilmoqda.

Mol-mulk solig'i va resurs to'lovlarining ulushini barqarorligi ta'minlanmoqda, ya'ni tahlil qilinayotgan yillarda 15-17 foizni tashkil etgan.



2.2-rasm. O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti daromadlarining tuzilishi
(jamiga nisbatan %da)²⁶

²⁶ O'zbekiyaton Respublikasi Moliya vazirligi ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

Respublikamizda so'nggi yillarda makroiqtisodiy va moliyaviy barqarorlik borasida erishilgan ijobiy natijalar jamiyatimiz iqtisodiy hayotining barcha sohalarini, avvalambor, amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini, yangicha jarayonlar va sifat o'zgarishlarini chuqur tahlil etib, kerakli xulosalar chiqarishni taqozo etadi. Ma'lumki, iqtisodiy o'sish ikki usulda, ya'ni yalpi ichki mahsulot (YaIM) hajmining o'sishi va aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaIMning o'sishi bilan aniqlanadi. Mamlakatimiz iqtisodiy rivojlanishiga oid statistik ma'lumotlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, keyingi yillarda YaIM yuqori sur'atlarda o'syapti.

2015 yilda YaIM hajmi oldingi yilga nisbatan 8,0 foizga o'sgan bo'lsa, 2015 yilda 7,8 foizga o'sdi. 2017 yilda YaIM hajmi 7,8 foizdan iborat bo'lishini ta'minlash rejalashtirildi.

Albatta, mamlakatda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning bosh strategiyasi iqtisodiy o'sish barqarorligini va iqtisodiy mexanizmlarning to'liq ishlashini ta'minlashdir. Makroiqtisodiy o'sishni ta'minlashga ko'pgina omillar ta'sir qilib, bular ichida byudjet-soliq siyosati alohida o'rin tutadi.


Olib borilayotgan byudjet-soliq siyosatining pirovard natijasi va bahosini amaldagi soliq yuki ko'rsatkichi o'zida mujassam etadi. Soliq yuki mamlakatda olib borilayotgan soliq siyosatining natijaviy ko'rsatkichi bo'lib, iqtisodiyotda muhim o'rin egallaydi.

So'nggi yillarda soliqqa tortish tizimini takomillashtirish, soliq stavkalarini pasaytirish va soliqdan imtiyozlar berish hamda ishlab chiqarishning o'sishi natijasida soliq yuki darajasi ancha pasaydi. Bu esa YaIM hajmining o'sishiga bevosita ta'sir ko'rsatdi.

Ma'lumki, amaldagi soliq yuki makroiqtisodiy darajada davlat byudjeti daromadlarining YaIMga nisbati orqali aniqlanadi. Bu usul jahonning ko'pgina mamlakatlarida keng qo'llaniladi.

5-rasm ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, O'zbekistonda makroiqtisodiy soliq yuki darajasi mustaqillik yillarida 2 baravardan ortiq pasaytirildi, ya'ni 1991 yilda 41,2 foizni tashkil etgani holda, 2017 yilga kelib 20,2

foizni tashkil etmoqda. Bu jahonning ko'plab davlatlaridagi ko'rsatkichdan ancha pastdir.



2.3-rasm. O'zbekistonda makroiqtisodiy soliq yuki darajasining o'zgarishi (YaIMga nisbatan foizda)²⁷

Soliq siyosati doirasida amalga oshirilayotgan choralar davlat byudjetining daromad qismida tarkibiy o'zgarishlarni keltirib chiqardi. Soliq yukini pasayishi natijasida bo'shagan mablag'lar o'z oborot mablag'larini to'ldirish, investitsiyalarni ko'paytirish manbasi bo'ldi, bu esa soliq solish bazasining kengayishiga olib keldi.

Ma'lumki, davlat byudjeti tarkibi daromadlar va xarajatlardan iborat. Davlat byudjeti xarajatlari tasdiqlangan byudjetdan mablag' ajratish doirasida quyida gicha amalga oshiriladi:

- 1) Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari;
- 2) Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash xarajatlari;
- 3) Iqtisodiyot xarajatlari;
- 4) Markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari;

²⁷ O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

- 5) Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarini saqlab turish xarajatlari;
- 6) Sudlarni, adliya va prokuratura organlarini saqlab turish xarajatlari;
- 7) Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini saqlab turish xarajatlari;
- 8) boshqa xarajatlar²⁸.

3-jadvalda 2015-2017 yillarda O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti xarajatlari tarkibi va tuzilishi keltirilgan.

2.3-jadval

O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti xarajatlari tarkibining tahlili²⁹

Ko'rsatkichlar	2015 yil		2016 yil		2017 yil	
	mlrd.so'm	foiz	mlrd.so'm	foiz	mlrd.so'm	foiz
1. Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari	22457,0	58,8	22457,0	58,8	27119,0	57,8
- maorif	13079,2	34,4	13079,2	34,4	16386,1	34,9
- sog'liqni saqlash	5867,4	15,4	5867,4	15,4	6882,9	14,7
- madaniyat va sport	388,3	1,0	388,3	1,0	481,1	1,0
- fan	245,3	0,6	245,3	0,6	278,1	0,6
- ijtimoiy ta'minot	150,4	0,4	150,4	0,4	233,9	0,5
- bolali oilalarni hisobga olgan holda ijtimoiy nafaqalar	2279,8	6,0	2279,8	6,0	2506,9	5,3
- qishloq joylardagi yakka tartibdagi uy-joylar qurish dasturini birgalikda moliyalashtirish kredit liniyasi	971,8	2,5	971,8	2,5	350	3,3
2. NNT,NST va fuqarolik jamiyatlari institutlarini rivojlantirish uchun mablag'lar va grantlar	10,0	0,03	10,0	0,03	12,0	0,03
3. Iqtisodiyot xarajatlari	4119,7	10,8	4119,7	10,8	5082,3	10,8
4. Markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari	1800,0	4,7	1800,0	4,7	2450,0	5,2
5. Davlat hokimiyati,boshqaruv organlari,sud organlari va fuqarolarni o'z-o'zini boshqarish organlarini saqlash xarajatlari	1746,5	4,6	1746,5	4,6	1524,2	3,1
6. Boshqa xarajatlar	7834,5	20,6	7834,5	20,6	10044,1	21,4
XARAJATLAR JAMI (MAQSADLI JAMG'ARMALARSIZ)	37967,7	100,0	40930,0	100,0	46943,1	100

Keltirilgan jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Davlat byudjeti xarajatlari (davlat maqsadli xarajatlarisiz) summasi yildan-yilga o'sib bormoqda,

²⁸ O'zbekiston Respublikasi Budget Kodeksining 69-moddasi.

²⁹ O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

ya'ni 2015 yilda 37967,7 mlrd.so'mni, 2016 yilda 40930,0 mlrd.so'mni tashkil etgani holda, 2017 yilda 46943,1 mlrd.so'mni tashkil qilgan.

Respublikamiz Davlat byudjeti xarajatlari tarkibida ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari muhim ahamiyatga ega bo'lib, 2015 yilda jami xarajatlarning 58,8 foizini, 2016 yilda 59,1 foizini tashkil etib, 2017 yilda 59,2 foizini tashkil etishi rejalashtirilgan. Ushbu xarajatlar yillar bo'yicha o'sib bormoqda. Davlat byudjeti xarajatlari tarkibida maorif va sog'liqni saqlash xarajatlari yuqori ulushga ega.

Respublikamiz davlat byudjeti xarajatlari tarkibining tahlili ko'rsatmoqdaki, mamlakatda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti shakllantirilmoqda.

Byudjet daromadlari va xarajatlarining tengligi byudjetning balanslashtirilganligidan dalolat beradi. Amaliyotda byudjet daromadlari va xarajatlarining tengligiga hamma vaqt ham erishilavermaydi. Agar byudjet daromadlari uning xarajatlaridan ko'p bo'lsa, bunday vaziyat byudjet profitsiti deyiladi. Aksincha byudjet xarajatlari uning daromadlaridan ko'p bo'lishiga byudjet defitsiti (taqchilligi, kamomadi) deyiladi.

Davlat byudjeti taqchilligi davlat tomonidan ichki va xorijdan mablag'larni jalb qilish, respublika byudjeti mablag'larining moliya yili boshlanishidagi qoldiqlari va qonunlarga muvofiq boshqa manbalar hisobiga moliyalashtiriladi.

2.2. Davlat byudjetdan tashqari fondlarning davlat moliyasidagi o'rni

Davlat byudjetdan tashqari fondlari davlat moliyasining muhim tarkibiy qismi bo'lib, davlat maqsadli jamg'armalari byudjet loyihasi yig'ma Byudjetnomaga kiritiladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan taqdim etiladigan ushbu byudjetnoma O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tomonidan ko'rib chiqiladi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari esa o'z o'rnida, navbatdagi yil uchun Davlat byudjetini, davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarini hamda soliq va byudjet siyosatining asosiy yo'nalishlarini qabul qiladi. Keyinchalik shu asosda, davlat maqsadli

jamg'armalarining asosiy parametrlari tarkibiy moddalaridan biri hisoblangan navbatdagi yil uchun Davlat byudjeti to'g'risidagi qarorlarini ijro etish uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori qabul qilinadi. Davlat byudjetining, davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining asosiy parametrlari tasdiqlanganidan keyin esa, O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi byudjet mablag'larini taqsimlovchilar va davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlar uchun belgilangan daromadlar va xarajatlarning hajmlarini ularning e'tiboriga o'n ish kuni ichida yetkazadi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, byudjet tizimining barcha byudjet tashkilotlari singari davlat maqsadli jamg'armalari ham o'z xarajatlar smetasini tuzadi va vakolatli organlarga taqdim etadi. Byudjet kodeksining 108-moddasi aynan davlat maqsadli jamg'armalarining xarajatlar smetasini tuzish va tasdiqlash haqida bo'lib, unda davlat maqsadli jamg'armalarining mablag'lari bo'yicha xarajatlar smetasi davlat maqsadli jamg'armalari mablag'larini oluvchilar tomonidan ularning bir yil uchun tasdiqlangan parametrlari doirasida oyma-oy bo'lingan holda tuzilishi va tasdiqlanishi belgilab qo'yilgan. Shu bilan bir qatorda, davlat maqsadli jamg'armalarining mablag'lari bo'yicha xarajatlar smetasining va unga doir ilovalarning shakllari hamda smetani tuzish tartibi davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlar tomonidan tasdiqlanishi ko'rsatib o'tilgan. Qolaversa, ushbu moddada davlat maqsadli jamg'armalarining mablag'lari bo'yicha xarajatlar smetalarini tasdiqlash joriy yilning 10 martidan kechiktirmay amalga oshirilishi hamda davlat maqsadli jamg'armalarining mablag'lari bo'yicha tasdiqlangan xarajatlar smetalarini ro'yxatdan o'tkazish davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlar tomonidan joriy yilning 1 aprelidan kechiktirmay amalga oshirilishi qayd etilgan.

Davlat maqsadli jamg'armalari byudjeti ijrosi ham Moliya Vazirligi G'aznachiligi orqali amalga oshiriladi. Bunda davlat maqsadli jamg'armalarining byudjetlari bo'yicha shaxsiy g'azna hisobvaraqlari davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlari, asosan, Moliya Vazirligi tomonidan

ochiladi. Davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari o'rtasidagi to'lovlar g'azna memorial orderlari asosida amalga oshiriladi.

Davlat maqsadli jamg'armalarini tahlilini amalga oshirayotganimizda ularni guruhlarga bo'lib o'rganganimiz qulayroq. Davlat maqsadli jamg'armalari ikki guruhga bo'linadi:

1. Ijtimoiy yo'naltirilgan davlat maqsadli jamg'armalari;
2. Iqtisodiy yo'naltirilgan davlat maqsadli jamg'armalari.

Ijtimoiy himoyani (har qanday shaklda va aholining har qanday qatlami uchun), davlatning ijtimoiy siyosatini hamda ijtimoiy dasturlarni ro'yobga chiqarish doimo muayyan miqdordagi moddiy mablag'lardan maqsadli foydalanishni taqozo etadi. Shuning uchun ijtimoiy fondlar har qanday ijtimoiy mexanizmning ajralmas elementi bo'ladi. Jahon amaliyoti tahlilining ko'rsatishicha, bu fondlar turli-tuman shaklda tashkil qilinishi mumkin. Ijtimoiy fondlarning mazmuni iqtisodiy rivojlanishda ijtimoiy maqsadga erishish bilan obyektiv ravishda bog'liqdir. Bozor mexanizmining samaradorlik prinsiplari o'zaro asosiy va ijtimoiy adolat xususiyatlari bo'yicha ko'p jihatdan farq qiladi. Milliy iqtisodiyotdagi ijtimoiy yo'naltirilgan jamg'armalar, asosan, o'tish davridagi taqsimot munosabatlari mahsuli bo'lib, katta ijtimoiy yukni o'z zimmalariga oladilar. Ular firmalar, korxonalar, uy xo'jaliklari va davlat singari iqtisodiyot subyektlari daromadlarini qayta taqsimlash jarayonida shakllanadi. Xo'jalik yurituvchi subyektlar o'tish iqtisodiyotining ko'p tarmoqli xususiyatiga muvofiq mulkchilikning turli shakllaridagi korxonalardan iborat bo'ladi. Mamlakatimizda YaIM ning yildan yilga oshib borishi iqtisodiyot subyektlarining ijtimoiy jamg'armalarga mablag' ajratish imkoniyati ortayotganini anglatadi. Bu jihatdan olib qarasa, ijtimoiy jamg'armalarni mablag' bilan ta'minlashning ixtiyoriyligi, ikkinchi tomondan esa majburiyligini taqozo etadi. Ushbu ijtimoiy yo'naltirilgan jamg'armalarni shakllantirishning ixtiyoriyligi bozor munosabatlarining demokratik mohiyati bilan belgilanadi. Majburiyligi esa, davlatning bozor iqtisodiyotidagi funksional roli, shu jumladan uning ijtimoiy vazifalari bilan oldindan belgilanadi.

Fuqorolarning ijtimoiy ta'minotga bo'lgan huquqlari asosiy qomusimiz bo'lgan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi tomonidan kafolatlangan. Jumladan, uning 39-moddasida: "Har kim qariganda, mehnat layoqatini yo'qotganda, shuningdek boquvchisidan mahrum bo'lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta'minot olish huquqiga ega. Pensiyalar, nafaqalar, ijtimoiy yordam boshqa turlarining miqdori rasman belgilab qo'yilgan tirikchilik uchun zarur eng kam miqdordan oz bo'lishi mumkin emas"³⁰ deb qayd etilgan. Shuning o'ziyoq, mamlakatimizda ijtimoiy sohaga berilayotgan e'tiborning yuqoriligidan darak beradi. Keyingi yillarda, ijtimoiy islohotlarning yangi bosqichga chiqarishga erishganlik bilan bir qatorda, istiqbolli ijtimoiy loyihalar amalga oshirilishi ham ko'zda tutilmoqda. Xususan, Prezidentimiz Shavkat Mirmonovich Mirziyoyev: "Samarali mehnat uchun zarur sharoitlar, munosib ish haqi, zamonaviy uy-joylar, sifatli ta'lim va tibbiy yordam, dam olish va hordiq chiqarish uchun keng imkoniyatlar yaratish bularning barchasi iqtisodiy sohadagi islohotlarimiz mohiyati va mazmunini belgilab beradigan muhim omillardir. Shu borada nafaqat eng kam oylik ish haqini, balki byudjet tashkilotlarida ham, xo'jalik yurituvchi subyektlarda ham o'rtacha ish haqi miqdorini, pensiya, stipendiya va ijtimoiy nafaqalar hajmini bosqichma-bosqich ko'paytirish e'tiborimiz markazida bo'ladi"³¹ deb ta'kidlab o'tdi. Birgina misol, o'tgan 2016-yilda davlat maqsadli dasturlari doirasida ijtimoiy obyektlarni qurish va rekonstruktsiya qilishga yo'naltirilgan, Davlat maqsadli jamg'armalari mablag'lari o'tgan yilga nisbatan 8,2%ga ortib, 2483,1 mlrd.sumni tashkil etdi. Shu bilan birga, o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmida davlat maqsadli jamg'armalarining ulushi 6,1% ni tashkil etdi³².

Bugungi kunda malakatimizda faoliyat olib borayotgan davlat maqsadli jamg'armalaridan quyidagilarni ijtimoiy yo'naltirilgan deb hisoblash mumkin:

- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi;

³⁰ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 1992-yil 8-dekabr. 39-modda

³¹ Sh. Mirziyoyev. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash — yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Ma'ruza. 2016-yil 7-dekabr.

³² O'zbekiston Iqtisodiyoti. Axborot-tahliliy byulleten, T.: CER, 2017 yil, 6-bet

- O‘zbekiston Respublikasining Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi;

- O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg‘armasi;

Ushbu jamg‘armalar orasida byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi o‘zining keng qamrovliligi va yirik hajmdagi byudjetga egaligi bilan malakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarini amalga oshirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Pensiya fondining tashkil etilishi. Dastlab, O‘zbekiston Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining 1991 yil 14 yanvardagi 9-son qaroriga asosan Pensiya fondining O‘zbekiston jumhuriyat bo‘limi tashkil etilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining asosiy shakllanish manbalariga ko‘ra korxona va muassasalar tomonidan ajratiladigan mablag‘lardan iborat bo‘lib, markazlashgan holda davlat nazorati ostida jamg‘ariladi va taqsimlanadi.

Jamg‘arma daromadlari quyidagi manbalar hisobiga shakllantiriladi:

a) majburiy to‘lovlar va badallar:

- belgilangan miqdorlardagi yagona ijtimoiy to‘lov tushumlari;
- alohida yuridik shaxslarning ijtimoiy sug‘urta badallari;
- fuqarolarning sug‘urta badallari;
- jismoniy shaxslar ayrim toifalarining sug‘urta badallari;
- majburiy ajratmalar;

b) boshqa to‘lovlar:

- “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 15-moddasiga muvofiq tayinlangan mehnatda mayib bo‘lganlik yoki kasb kasalligi oqibatida nogiron bo‘lganlarga pensiyalar to‘lash xarajatlarini qoplash uchun regressiv talablar (da’volar) bo‘yicha ish beruvchilar va fuqarolardan undiriladigan mablag‘larning 85 foizi;

- “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to’g’risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 14-moddasiga muvofiq muddatidan oldin tayinlangan yoshga doir pensiyalarni to‘lash xarajatlarini qoplash uchun o‘tkaziladigan O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining Bandlikka ko‘maklashish jamg‘armasi mablag‘lari;

- “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to’g’risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 12-moddasiga muvofiq tayinlangan imtiyozli pensiyalarni to‘lash xarajatlarini qoplash hisobiga o‘tkaziladigan yuridik shaxslar mablag‘lari;

- dehqon xo‘jaliklari a‘zolarining ixtiyoriy tartibda to‘lanadigan sug‘urta badallari;

- hisoblangan jarimalar summasining bir qismi hamda majburiy to‘lovlar, badallar va boshqa to‘lovlar o‘z vaqtida to‘lanmaganligi uchun penyalari (qonun hujjatlariga muvofiq davlat soliq xizmati organlarini ijtimoiy rivojlantirish va moddiy-texnik ta’minlash maxsus jamg‘armasiga hamda Jamg‘arma xodimlarini ijtimoiy rivojlantirish va moddiy rag‘batlantirish jamg‘armasiga undiriladigan summalardan tashqari);

- yuridik shaxs tugatilganda, qishloq xo‘jaligi kooperativi (shirkati), fermer va dehqon xo‘jaligi qayta tashkil etilganda yoki tugatilganda mehnat vazifalarini bajarish bilan bog‘liq holda mayib bo‘lgan, kasb kasalligiga chalingan yoki sog‘lig‘iga boshqacha shikast etkazilgan xodimga etkazilgan zararni qoplash uchun to‘lanadigan summalar va boshqa to‘lovlar;³³

Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining bevosita so‘nggi yillardagi daromad va xarajatlarini tahlil qiladigan bo‘lsak, jamg‘arma daromadlari har yili o‘rtacha 20-25 % ga ortib, xarajatlar maqsadlilik darajasi ortib bormoqda. Yuqoridagi jadvalga e’tibor bersak, Pensiya jamg‘armasi daromadlari tarkibida mehnat haqi fondiga nisbatan yagona ijtimoiy to‘lovdan ajratmalar ulushi eng yuqori ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Turli yillarda bu ko‘rsatkich o‘rtacha 57 %

³³ O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi to’g’risida Nizom. 2010-yil 19-fevral. 10-modda

ni qayd etgan, xususan, 2017 yilda esa, 59,4 % tashkil etishi kutilmoqda. Bu 10226 mlrd soʻmga tengdir va bu oʻtgan 2016-yilgi 9474 mlrd soʻmdan 752 mlrd soʻmga koʻp demakdir.

2.4 – jadval

Pensiya jamgʻarmasining 2015-2017 yillardagi daromadlari tarkibi³⁴

Koʻrsatkichlar	2015 yil		2016 yil		2017 yil	
	mlrd. soʻmda	Jamiga nisbatan foizda	mlrd. soʻmda	Jamiga nisbatan foizda	mlrd. soʻmda	Jamiga nisbatan foizda
Jami daromadlar	16557	100	18113,3	100	17223,1	100
Yil boshida kutilayotgan qoldiq	2592	15,6	2568,3	14,2	2282,0	13,2
Daromadlar	13965	84,3	15545	85,8	14941,1	86,8
Shu jumladan:						
Mexnat xaqi fondiga nisbatan yagona ijtimoiy toʻlovdan ajratmalar	8324,2	59,6	9474	52,3	10226,0	59,4
Fuqarolarning ish haqi fondidan majburiy sugʻurta badali	2463,8	17,6	3235	17,9	3993,9	23,2
Tovar (xizmat, ish) larning sotish hajmidan majburiy ajratmalar	2063,8	14,7	1527	8,4	1429,7	8,3
Soliqsiz tushumlar	-	-	18	0,1	19	0,1
Boshqa daromadlar	1113,1	8	1291	7,1	1555,5	9,0

Shuningdek, daromadlar tarkibida fuqarolarning ish haqi fondidan majburiy sugʻurta badali ulushi ham yildan yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2015-yilda 2014-yilga nisbatan ulush koʻrsatkichi 3,2 % ga, yaʼni 586,6 mlrd soʻmga oshgan. 2017-yilda ushbu daromad turi 3993,9 mlrd soʻmdan iborat boʻlishi kutilmoqda. Taʼkidlash lozimki, ushbu koʻrsatkich 2016-yilda 3235,0 mlrd soʻmni tashkil qilgan.

³⁴ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat byudjeti asosiy makroiqtisodiy koʻrsatkichlari va parametrlari prognozi toʻgʻrisidagi qarorlari asosida tayyorlandi.

Shuningdek, Pensiya jamg'armasining daromadlari o'zgarish sur'atlarini dinamik harakatiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, oxirgi yillarda o'suvchan tendensiyaning guvohi bo'lishimiz mumkin. Jumladan, 2015-2016 – yillar oralig'ida o'sish sur'atlari deyarli 1,2 barobarni tashkil etgan bo'lsa, bu yilgi prognoz ko'rsatkichlari esa, daromadlar hajmining biroz pasayishini aks ettirmoqda.

Moliya Vazirligi huzuridagi Pensiya jamg'armasi har yili xarajatlar smetasiga kiritilgan yo'nalishlar bo'yicha xarajatlarni amalga oshiradi. Agar oxirgi 2 yillikdagi xarajatlar tarkibi va 2017-yil uchun tasdiqlangan prognoz ma'lumotlari asosida shuni ta'kidlash mumkinki, jamg'arma xarajatlari yillik o'sish sur'atlarini ko'rsatmoqda.

2.5 – jadval

**Pensiya jamg'armasining 2015-2017 yillardagi xarajatlari tarkibi
hamda³⁵**

Ko'rsatkichlar	2015 yil		2016 yil		2017 yil	
	mlrd. so'mda	Jamiga nisbatan foizda	mlrd. so'mda	Jamiga nisbatan foizda	mlrd. so'mda	Jamiga nisbatan foizda
Xarajatlar jami	16557	100	18113,3	100	19 505.1	100
Ishlamayotgan pensionerlarga pensiya to'lovlari	12838,1	77,5	14779,6	81,6	16 629.9	85,3
Ishlayotgan pensionerlarga pensiya to'lovlari	474,8	2,8	484,3	2,7	534,5	2,7
Keksa yoshdagilar va ishlamaydigan fuqarolar uchun nafaqalar, dafn marosimlari uchun nafaqalar va boshqa to'lovlar	105,2	0,6	152,1	0,8	204,3	1,1
Boshqa xarajatlar	2,8	0,02	3	0,02	10,0	0,05
Yil oxirida qoldiq mablag'lar	3136,1	18,9	2694,3	14,9	2126,4	10,9

³⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat byudjeti asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va parametrlari prognozi to'g'risidagi qarorlari asosida tayyorlandi.

Jumladan, jamg'armaning jami xarajatlari 2015-yilda 16557,0 mlrd so'm hamda o'tgan 2016-yilda esa 18113,3 mlrd so'mni tashkil etgan. Bu yilgi byudjet parametrlariga ko'ra esa, jamg'arma xarajatlari 19505,1 mlrd so'mdan iborat bo'lishi prognoz qilingan. Bevosita jamg'arma xarajatlari tarkibini tahlil qiladigan bo'lsak, ishlamayotgan pensionerlarga ajratiladigan pensiya to'lovlari yuqori ulushga egaligiga guvoh bo'lish mumkin. Yuqoridagi jadvaldan shu ma'lum bo'ladiki, ishlamayotgan pensionerlarga pensiya to'lovlari bilan bog'liq xarajatlar kuzatilayotgan yillar mobaynida jami xarajatlar tarkibida o'rtacha 83 % ulush bilan yetakchilik qilmoqda. Birgina 2017-yilning o'zida ushbu to'lov umumiy summasi 14779,6 mlrd so'mni tashkil etganligi va bu jamiga nisbatan 81,6 % ulushni qayd etganligi mamlakatimizda ijtimoiy soha, xususan, pensionerlarni qo'llab-quvvatlash borasida yaxshi an'ana yo'lga qo'yilganidan darak beradi. Joriy yil uchun tasdiqlangan byudjet parametrlariga muvofiq, keksa yoshdagilar va ishlamaydigan fuqarolar uchun nafaqalar, dafn marosimlari uchun nafaqalar va boshqa to'lovlar uchun 204,3 mlrd so'm ajratilishi ko'zda tutilgan. Ishlayotgan pensionerlarga pensiya to'lovlari ham Pensiya jamg'armasi amalaga oshiradigan xarajatlar orasida yetakchi o'rinlarda turadi. Xususan, 2013-yilda ushbu xarajat 317,4 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2016 yilga kelib, ushbu ko'rsatkich 484,3 mlrd so'mdan iborat bo'lgan. 2017-yilda esa ushbu pensiya turi uchun 534,5 mlrd so'm ajratilishi ko'zda tutilyapti.

Iqtisodiy yo'naltirilgan davlat maqsadli jamg'armalarining o'ziga xos farqli jihatlaridan biri sifatida ularning vaqtinchalik xususiyatini misol qilishimiz mumkin. Ya'ni, amaliyotda, faqatgina eng zarur va rivojlanishi taqozo etadigan tarmoq va sohalar uchungina maxsus jamg'armalar tashkil etiladi. Biroz muddat o'tib, ya'ni rivojlanishning me'yoriy nuqtasiga yetgach ushbu jamg'armalarga ehtiyoj qolmaydi va ular tugatiladi yoki restrukturizatsiya qilinib, faoliyat yo'nalishi o'zgaradi. Mamlakatning izchil rivojlanishi va jahon integratsiyasiga yaqinlashishi, Respublika Yo'l jamg'armasi moliyaviy resurslarini shakllantirish va moliyalashtirishni samarali tashkil etishni talab qila boshladi. Shundan so'ng

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 21 avgustida "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzurida Respublika yo'l jamg'armasi va "O'zavtoyo'l" davlat aksionerlik kompaniyasi faoliyatini tashkil etish masalalari to'g'risida"gi 361-sonli Qarori e'lon qilindi. Mazkur qaroming 5-ilovasiga muvofiq, Respublika yo'l jamg'armasi faoliyatini muvofiqlashtiruvchi yo'riqnoma ishlab chiqildi. Yo'riqnomada Respublika yo'l jamg'armasining umumiy qoidalari, maqsadi, asosiy vazifalari va funksiyalari, jamg'armaning huquq va majburiyatlari, jamg'armani boshqaruv kengashi haqida va ijrochi organi faoliyatini tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar aks etgan. Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Respublika Yo'l jamg'armasi zimmasiga bir qator vazifalar yuklatilgan bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

- Respublika yo'l jamg'armasi mablag'lari tushumi va sarf-xarajatlarining yillik va choraklik balanslarini shakllantirish;
- yo'l xo'jaligi obyektlarini qurish, rekonstruktsiya qilish, ta'mirlash va jihozlashning manzilli ro'yxatlarini belgilangan tartibda kelishish;
- umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llaridan foydalanish va ularni saqlash xarajatlari smetasini ro'yxatdan o'tkazish.³⁶

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika yo'l jamg'armasining daromadlari:

- Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar;
- Respublika yo'l jamg'armasiga yig'imlar;
- vaqtinchalik bo'sh turgan mablag'larni joylashtirishdan olingan daromadlar;
- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa manbalar hisobidan shakllantiriladi.

Bevosita ushbu jamg'armaning daromad va xarajatlarini tahlil qiladigan bo'lsak, Yo'l jamg'armasi daromadlari ham xuddi Pensiya jamg'armasida kuzatilgani kabi o'sish tendensiyasiga ega. Quyidagi jadval asosida Vazirlar Maxkamasi huzuridagi Respublika Yo'l jamg'armasining 2015-2017 yillardagi

³⁶ Yo'l xo'jaligini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. PF-4954. 2017-yil 14-fevral.

daromadlar tarkibi hamda ularning egallagan ulushlarini ko'rishimiz va baho berishimiz mumkin.

2.6 - jadval

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Respublika Yo'l jamg'armasining 2015-2017 yillardagi daromadlari tarkibi³⁷

Ko'rsatkichlar	2015-yil		2016-yil		2017-yil	
	mlrd. so'mda	Jamiga nisbatan foizda	mlrd. so'mda	Jamiga nisbatan foizda	mlrd. so'mda	Jamiga nisbatan foizda
Daromadlar jami, shu jumladan	2782,6	100,0	2974,0	100	3424,9	100
Yil boshiga kutilayotgan qoldiq	-	-	-	-	365,7	
Mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) sotishdan majburiy ajratmalar	1684,4	60,5	1815,2	61,0	1863,0	54,4
O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirilayotgan yoki sotib olinayotgan avtotransport vositalari egalari (foydalanuvchilari) tomonidan O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi organlarida ro'yxatdan o'tganlik uchun O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika yo'l jamg'armasi yig'imlar	448,6	16,1	510,6	17,2	550,0	16,1
Bir avtotashuvchi uchun xorijiy davlatlar avtotransport vositalarini O'zbekiston Respublikasi hududiga kirishi va tranzit o'tishi uchun Respublika yo'l jamg'armasiga yig'imlar (<i>valyuta tushumlarining so'mdagi ekvivalenti</i>)	54,0	1,9	60,2	2,0	67,5	2,0
Xalqaro moliya institutlarining Zayomlari	584,6	21,0	529,1	17,8	536,7	15,7
Boshqa tushumlar	11,0	0,4	36,6	1,2	42,0	1,2
Valyutalarning kursdagi farqi	29,3	1,1	22,3	0,7	0,0	0,0

³⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat byudjeti asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va parametrlari prognozi to'g'risidagi qarorlari asosida tayyorlandi

Ko‘rinib turganidek, jamg‘arma daromadlari 2015-2017 yillarda har yili o‘rtacha 10-15 % ga ortgan bo‘lsa, 2016-yilga kelib o‘sish sur‘atlari biroz pasaygan (10 %), shuningdek, 2017-yilgi prognoz ko‘rsatkichlari o‘sish sur‘ati 15 % ga teng bo‘lishini aks ettirmoqda. Agar daromadlarning turli yillardagi qiymat ifodasiga qaraydigan bo‘lsak, bu 2013 –yilda 1541,5 mlrd so‘m, 2014-yilda 2111,8 mlrd so‘m, 2015-yilda 2782,6 mlrd so‘m va o‘tgan 2016-yilda 2974,0 mlrd so‘mni tashkil etgan hamda 2017-yil uchun jami daromad 3424,9 mlrd so‘m hajmida rejalashtirilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Respublika yo‘l jamg‘armasining mablag‘laridan bugungi kunda quyidagi yo‘nalishlar asosida xarajatlar amalga oshirilmoqda:

- umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llarini loyihalash, qurish, rekonstruksiya qilish, ta‘mirlash, saqlash, shu jumladan jihozlash (texnologik asbob-uskunalar, texnika va mashina-mexanizmlar olish);
- umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llari sohasidagi maxsus vakolatli organ, uning hududiy yo‘l-ekspluatatsiya tashkilotlari boshqaruv apparati xodimlarining hamda muhandis-texnik xodimlarining va Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Respublika Yo‘l jamg‘armasining ijro etuvchi direksiyasi xodimlarining malakasini oshirish;
- Jamg‘armaning ijro etuvchi direksiyasini, umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llari sohasidagi maxsus vakolatli organning ijro etuvchi devonini hamda uning Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlardagi hududiy yo‘l-ekspluatatsiya tashkilotlarini saqlab turish;
- belgilangan tartibda aniqlanadigan boshqa xarajatlar uchun foydalaniladi.

2.7 - jadvalda berilgan ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, jamg‘armaning jami xarajatlari 2015-yilda 2782,6 mlrd so‘mni hamda o‘tgan 2016-yilda esa 3214,4 mlrd so‘mni tashkil etgan. Bu yilgi byudjet parametrlariga ko‘ra esa, jamg‘arma xarajatlari 3424,9 mlrd so‘mdan iborat bo‘lishi prognoz qilingan.

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Respublika Yo‘l jamg‘armasining 2015-2017 yillardagi xarajatlari tarkibi³⁸

Ko‘rsatkichlar	2015-yil		2016-yil		2017-yil	
	mlrd. so‘mda	Jamiga nisbatan foizda	mlrd. so‘mda	Jamiga nisbatan foizda	mlrd. so‘mda	Jamiga nisbatan foizda
Xarajatlar jami, shu jumladan	2782,6	100,0	3214,4	100,0	3424,9	100,0
Umumfoydalanuvdagi avtomobil yo‘llarini loyihalashtirish xarajatlari	15,0	0,4	17,6	0,5	20,0	0,6
Umumfoydalanuvdagi avtomobil yo‘llarini qurish va rekonstruksiya qilish xarajatlari	1 467,9	42,2	1606,9	46,2	2006,7	57,6
shu jumladan, xorijiy moliya institutlari mablag‘lari	584,6	16,8	529,1	15,2	536,7	15,4
Umumfoydalanuvdagi avtomobil yo‘llarini ta‘mirlash va saqlash xarajatlari	838,9	24,1	735,6	21,1	752,4	21,6
Umumfoydalanuvdagi avtomobil yo‘llarini saqlash uchun harid qilinadigan mashina va mexanizm xarajatlari	120,0	3,4	101,5	2,9	980,0	2,3
O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika yo‘l jamg‘armasi boshqaruv apparatini saqlash xarajatlari	5,6	0,2	6,6	0,2	7,3	0,2
"O‘zavtoyol" DAK boshqaruv apparatini saqlash xarajatlari	2,3	0,1	2,8	0,1	3,3	0,1
"O‘zavtoyol" DAK hududiy yo‘llardan foydalanish tashkilotlarini boshqaruv apparatini saqlash xarajatlari	12,5	0,4	13,3	0,4	17,6	0,5
Umumfoydalanuvdagi avtomobil yo‘llarida sodir bo‘lgan tabiiy ofat oqibatlarini oldini olish va bartaraf etish xarajatlari	110,0	3,2	80,3	2,3	100,0	2,9
Umumfoydalanuvdagi avtomobil yo‘llarini qurish, ta‘mirlash va saqlash ishlari bilan bog‘liq bo‘lmagan xarajatlar	100,0	2,9	-	-	-	-
RYJ, DBQ va valyuta tushumlarini nazorat qilish, avtotashuvchi uchun horijiy davlatlar avtotransport vositalarini O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirishi va tranzit o‘tishi uchun bojxonalarda yig‘imlar bo‘yicha xizmat ko‘rsatuvchi banklar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik shartnomalarini bajarilishi	1,2	0,0	1,2	0,0	1,4	0,0
Boshqa xarajatlar	109,2	3,1	108,8	3,1	141,8	4,1
Yil oxiriga qoldiq		-	10,7	0,3	294,4	8,5

Bevosita jamg‘arma xarajatlari tarkibini tahlil qiladigan bo‘lsak, Respublika Yo‘l jamg‘armasi o‘z xarajatlari xilma-xilligi bilan boshqa maqsadli jamg‘armalardan ajralib turadi. Jadvalda aks ettirilganidek, umumfoydalanuvdagi avtomobil yo‘llarini qurish va rekonstruksiya qilish xarajatlari eng yuqori ulushni

³⁸ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat byudjeti asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari va parametrlari prognozi to‘g‘risidagi qarorlari asosida tayyorlandi

egallagan. Mazkur xarajatni moliyalashtirishda 2015-yilda 467,9 mlrd so'm ajratilgan bo'lsa, o'tgan 2016-yilda esa 1606,9 mlrd so'm sarf qilingan. Joriy yil byudjet prognoziga ko'ra esa, yana ham ko'proq, ya'ni 2006,7 mlrd so'm aynan ushbu xarajat uchun yo'nlatirilishi ko'zda tutilgan. Bu esa o'z o'rnida yurtimiz transport yo'llarini jahon standartlari darajasiga olib chiqishda ulkan qadamlardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi davlat moliya tizimini isloh etishda obyektiv iqtisodiy qonunlar mavjudligi va ularning doimo harakatda bo'lishi, muayyan tarixiy sharoitlarni hisobga olish bosqichlari, moliya sohasidagi mahalliy va xorij tajribalarini uyg'unlikda olib borilishini ta'minlash, moliya mexanizmining qurulishini ta'minlash, moliya tizimining barcha bo'g'inlarida daromad va xarajatlarni muvofiqlashtirish, byudjetning daromadlarini xarajatlardan oshirish maqsadida moliyaviy rezervlar yaratish, asosiy moliya resurslarini muhim ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish maqsadida markazlashtirish, salmoqli moliya resurslarini davlat ixtiyorida shakllantirish, pul-kredit siyosati bilan byudjet-soliq siyosatini muvofiqlashtirish, banklar va bank tizimi kapitallashuvini oshirish kabi vazifalar amalga oshirilishi kerak deb hisoblaymiz.

2.3. Rivojlangan mamlakatlarda davlat mablag'larini samarali boshqarishda g'aznachilik tizimining tutgan o'rnini


Xorijiy mamlakatlarda g'aznachilik tizimining shakllanishi va rivojlanishida Avstraliya tajribasi. Avstraliyada vazirlik maqomiga ega bo'lgan va to'g'ridan-to'g'ri hukumatga bo'ysinadigan G'aznachilik departamenti mavjud. Uning asosiy vazifalaridan biri tushumlarni yig'ishdan iborat. G'aznachilik departamenti tarkibida Soliq boshqarmasi joylashgan bo'lib, G'aznachilik departamenti shu boshqarma orqali soliq to'lovchilar bilan muomalada bo'ladi va tashqi tushumlardan tashqari barcha soliq to'lovlarni yig'ib oladi, tashqi tushumlarni yig'ish bilan esa bojxona xizmati shug'ullanadi.

Byudjetning xarajatlar qismining ijrosi Byudjetdan mablag' oluvchilarning so'rovi asosida amalga oshiriladi. Mamlakatda Byudjetdan mablag' oluvchilarni

Byudjet majburiyatlarining aniq huquqiy-me'yoriy xujjatlari qabul qilingan, shuningdek, Byudjet mablag'larini maqsadli va samarali ishlatishning nazorat usullari mavjud bo'lib, ular tarmoq vazirliklari tomonidan amalga oshiriladi. Bunda G'aznachilik departamenti faol g'aznachilik rolini o'ynaydi. Avstraliyada davlat qarzlarini boshqarish g'aznachilikka yuklatilgan. G'aznachilik departamenti muomalaga qimmatli qog'ozlar chiqarishni, ularning hajmini, tarkibini va to'lov muddatini nazorat qiladi.

Yaponiyada g'aznachilikni bajaradigan funktsiyalarining tashkiliy sxemasi o'ziga xos xususiyatga ega. Bo'linmalarning nomidan ko'rinib turibdiki, Yaponiyada davlat moliyasini boshqarish maxsus ixtisoslashgan kichik bo'linmalarga (podrazdeleniya) yuklatilgan.

Yaponiyada G'aznachilik bo'limi kunlarga bo'lingan moliya rejasini tayyorlaydi, shuningdek, Byudjetni ijro etish bo'limi bilan davlatning Yaponiya bankdagi hisobraqamdan to'lanadigan to'lovlarni va tushumlarni nazorat qiladi. Barcha tushumlarni yig'ilishiga Moliya Vazirligi tarkibidagi Milliy Soliq xizmati va Bojxona departamenti javob beradi. Soliqlar to'g'ridan-to'g'ri Yaponiya bankiga yoki vakolat berilgan tijorat banklariga, Milliy Soliq xizmati va Bojxona departamentining mahalliy bo'limlarida pochta tizimi asosida to'lanishi mumkin.




2.4-rasm. Yaponiyada davlat moliyasini boshqaruvchi organlar³⁹

³⁹ Matn asosida talaba tomonidan tayyorlandi.

Qarzlarni boshqarish bo'limi Yaponiya bankining agenti sifatida qimmatli qog'ozlarni chiqarish, ularning tarkibi, hajmi va muddatiga taalluqli masalalarni hal etadi. Byudjetni ijro etish bo'limi Byudjet vazirliklarining mablag'lari doirasida ularning xarajatlarini to'lash grafigini tasdiqlaydi, ayrim xarajatlarni moddalarini to'lash majburiyatlarini olishda Moliya Vazirligining ruxsati talab etiladi. Yaponiya banki Byudjet vazirliklarining mablag'larini ishlatilishini va ularning mavjud limitlarini nazorat qiladi. Hukumatning barcha davlat mablag'lari Yaponiya bankining yig'ma hisobraqamida to'planadi. Mamlakatda ikkita asosiy axborot tizimi mavjud. Bunda Byudjetni tayyorlash, uni ijro etish, Byudjet hujjatlarini nashr qilish va buxgalteriya hisobi amalga oshiriladi. Umumiy axborotni tayyorlash muddati hisobotning murakkabligiga bog'liq. Kassa operatsiyalari bo'yicha umumiy axborot har kuni tayyorlanadi, tarmoq vazirliklaridan kengaytirilgan axborotni olish mumkin.

Buyuk Britaniyada davlat moliyasini boshqarish quyidagicha taqsimlangan:



2.5-rasm. Buyuk Britaniya davlat moliyasini boshqaruvchi organlar tavsifi⁴⁰

Buyuk Britaniyada davlat moliyasini bir qator davlat organlari amalga oshiradilar, biroq ular ichida asosiy o'rinni g'aznachilik egallaydi, uning bo'yniga davlat Byudjetini ishlab chiqish, tuzish va bajarish, soliq siyosati, halqaro

⁴⁰ <http://www.hm-treasury.gov.uk> internet sayti ma'lumotlari asosida talaba tomonidan tuzildi.

moliyaviy munosabatlarni moliyaviy va iqtisodiy rejalashtirish va uning ustidan nazorat qilish yuklatilgan. Bundan tashqari mamlakatda bojxona bojlari va aktsizlar boshqarmasi va ichki daromadlarni boshqarish boshqarmasi faoliyat yuritadi, ulardan birinchisining asosiy vazifasiga bojxona va aktsiz yig'implarni jamlashdan tashqari, bu sohadagi konunlarning bajarilishi yuklatilgan, bo'lsa ikkinchisi to'g'ri soliqlarni undirilishini boshqaradi.

Mamlakatning davlat qarzlarini bilan Angliya Banki shug'ullanadi. Uning huquqlariga zayomlar chiqarish, kapital zayomlar summasini so'ndirish va joriy qarzдорlik bo'yicha barcha operatsiyalarni amalda yuritish kiradi. Quyidagi sxemada Buyuk Britaniya davlat moliyasini boshqarilish tizimi aks etgan.

Asosiy boshqaruv G'aznachilik tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu tashkilot davlat Byudjeti loyihasini yaratadi va Konsolidatsiyalashgan fondga bo'lgan barcha tushumlarni nazorat qiladi, fond esa o'z navbatida G'aznachilikning yagona hisob raqami hisoblanadi. Buyuk Britaniyada G'aznachilik keng vakolatlarga egadir, ularni umumiy tarzda quyidagilarga bo'lish mumkin:

- Konsolidatsiyalashgan fondning to'lovlarini nazorat qiladi;
- Mamlakat moliyaviy aktivlarini nazorat qiladi;
- Davlat qarzini boshqaradi va qimmatli qog'ozlarni chiqarish muddatini va sonini belgilaydi;
- Hisob-kitob metodikasini belgilab beradi.

Buyuk Britaniyada davlat moliyasini boshqarish quyidagi tartib asosida tuzilgan. G'aznachilik karzlarni boshqarishni amalga oshiradi, g'aznachilikning bosh idorasi hisobrakamlarni ro'yxatdan o'tkazadi va hisob-kitoblarni yuritadi.

Byudjetga tushumlar soliq va bojxona xizmati orqali, soliqdan tashkari yig'implar esa departamentlar orqali yig'iladi.

G'aznachilik daromadlarni va xarajatlarni balanslashtirish maqsadida xar oyda moliya rejasini ishlab chiqadi, bu reja qisqa muddatli moliyalashtirishdagi talabni aniqlashda ishlatiladi.

Yaponiyada g'aznachilik bo'limi kunlarga bo'lingan moliya rejasini tayyorlaydi, shuningdek, Byudjetni ijro etish bo'limi bilan davlatning Yaponiya bankdagi hisobraqamdan to'lanadigan to'lovlarni va tushumlarni nazorat qiladi.

Barcha tushumlarni yig'ilishiga Moliya Vazirligi tarkibidagi Milliy Soliq xizmati va Bojxona departamenti javob beradi. Soliqlar to'g'ridan-to'g'ri Yaponiya bankiga yoki vakolat berilgan tijorat banklariga, Milliy Soliq xizmati va Bojxona departamentining mahalliy bo'limlarida pochta tizimi asosida to'lanishi mumkin.

Qarzlarni boshqarish bo'limi Yaponiya bankining agenti sifatida qimmatli qog'ozlarni chiqarish, ularning tarkibi, hajmi va muddatiga taallukli masalalarni hal etadi. Byudjetni ijro etish bo'limi Byudjet vazirliklarining mablag'lari doirasida ularning xarajatlarini to'lash grafigini tasdiklaydi, ayrim xarajatlarni moddalarini to'lash majburiyatlarini olishda Moliya Vazirligining ruxsati talab etiladi.

Mamlakatda ikkita asosiy axborot tizimi mavjud. Bunda Byudjetni tayyorlash, o'ni ijro etish, Byudjet hujjatlarini nashr qilish va buxgalteriya hisobi amalga oshiriladi. Umumiy axborotni tayyorlash muddati hisobotning murakkabligiga bog'lik. Kassa operatsiyalari bo'yicha umumiy axborot har kuni tayyorlanadi, tarmoq vazirliklaridan kengaytirilgan axborotni olish mumkin.

II - bob bo'yicha xulosa

Xulosa qilib aytganda, davlat byudjeti davlatning yirik markazlashgan pul fondi bo'lib, u davlatning funktsiyalarini bajarishga asoslangan iqtisodiy kategoriya hisoblanadi. Byudjet davlatning markazlashgan pul jamg'armalarining tashkil etilishi va davlat siyosatini amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlar yuzasidan pul munosabatlarini bildiradi. Davlat byudjeti moliya tizimi hamda davlat moliyasining asosiy bo'g'inidir. Respublikamizda davlat byudjeti daromadlari asosan soliqlar va ularga tenglashtirilgan majburiy to'lovlar hisobiga shakllantirilishi qonuniy mustahkamlangan.

Davlat byudjeti daromadlari tarkibida davlat maqsadli jamg'armalari daromadlari yuqori salmoqqa ega. Bundan ko'rinadiki, davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy ajratmalarning to'liq va o'z vaqtida kelib tushishi, ya'ni ular daromadlari prognozining bajarilishining ta'minlanishi mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga asos bo'lib xizmat qiladi.

Ko'pgina taraqqiy topgan mamlakatlarda vaziyat qanday tus olishini oldindan aytib bo'lmaydigan va turli xavf-xatarlar saqlanib qolayotgan bir sharoitda davlat qarzlari va davlat byudjeti taqchilligi tobora ortib bormoqda.

Shu bilan birga, jahon zaxira valyutalarining beqarorligi, moliya-bank tizimi kredit qobiliyatining keskin pasayishi va investitsiyaviy faollikning susayishi bilan bog'liq murakkab muammolar ko'plab davlatlar iqtisodiyotining tiklanish va o'sish sur'atlariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.


3 - BOB. DAVLAT MOLIIYASI BARQARORLIGINI TA'MINLASH VA SAMARALI TASHKIL ETISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI

3.1. O'zbekiston Respublikasi davlat moliyasi barqarorligini ta'minlashda mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'nalishlari

Mamlakatimizda barqaror va samarali iqtisodiyotni shakllantirish borasida amalga oshirib kelinayotgan islohotlar bugungi kunda o'zining ijobiy natijalarini namoyon etmoqda. Jumladan, qisqa vaqt ichida iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, davlat byudjeti daromadlarining o'sishini ta'minlash, davlat moliyasi tarkibida davlat maqsadli jamg'armalarining rolini oshirish, samarali tashqi savdo hamda investitsiya jarayonlarini kuchaytirish, qishloq xo'jaligini isloh qilish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini barqaror rivojlantirish, bank-moliya tizimi faoliyatini mustahkamlashda ahamiyatli yutuqlar qo'lga kiritildi. Mamlakatimizda iqtisodiyotni erkinlashtirish va modernizatsiyalash, bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish natijasida yildan yilga salmoqli natijalar qo'lga kiritilib, barqaror iqtisodiy o'sish yo'nalishi mustahkamlanib bormoqda. Bunda hukumatimiz tomonidan ishlab chiqilgan iqtisodiy siyosatning to'la va izchil amalga oshirilishi, iqtisodiyotning muhim ustuvor tarmoqlarining belgilab berilishi hamda ularni rivojlantirish bo'yicha barcha imkoniyatlarning safarbar etilishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, Bugungi kunda 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi iqtisodiyotda ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan boshqaruv tizimidan mutlaqo voz kechilib, bozor islohotlari bosqichma-bosqich amalga oshirilgani va pul-kredit siyosati puxta o'ylab olib borilgani makroiqtisodiy barqarorlikni, iqtisodiyotning yuqori sur'atlar bilan o'sishini, inflyatsiyani prognoz ko'rsatkichlari darajasida saqlab qolishni ta'minladi hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, fermerlik harakatini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar va qulay sharoitlar yaratilishiga xizmat qilishi belgilab olingan. Harakatlar strategiyasining III-ustuvor yo'nalishida "Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlari"

belgilangan bo‘lib, unda makroiqtisodiy mutanosiblikni saqlash, qabul qilingan o‘rta muddatli dasturlar asosida tarkibiy va institutsional o‘zgarishlarni chuqurlashtirish hisobiga yalpi ichki mahsulotning barqaror yuqori o‘shish sur‘atlarini ta‘minlash, xarajatlarning ijtimoiy yo‘naltirilganini saqlab qolgan holda davlat byudjetining barcha darajalarida mutanosiblikni ta‘minlash, mahalliy byudjetlarning daromad qismini mustahkamlashga qaratilgan byudjetlararo munosabatlarni takomillashtirish, soliq yukini kamaytirish va soliqqa tortish tizimini soddalashtirish siyosatini davom ettirish, soliq ma‘muriyatchiligini takomillashtirish va tegishli rag‘batlantiruvchi choralarni kengaytirish”⁴¹ – bo‘yicha alohida islohotlar amalga oshirilishi belgilab qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy holatini uning YaIMdagi o‘shish tendensiyasida ham ko‘rishimiz mumkin.



3.1-rasm. Ozbekistonda yalpi ichki mahsulotning o‘shish tendensiyasi⁴²

Yuqoriga rasm orqali mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan tovar va xizmatlar hajmining yillar davomida o‘shish tendensiyasini yoxud, barqaror 8 foizlik o‘shishini ko‘rishimiz mumkin. Bu esa mamlakat iqtisodiyotida

⁴¹ “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son.

⁴² O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida talaba tomonidan tuzildi.

bajarilayotgan iqtisodiy islohotlar, iqtisodiyotda qo'llanilayotgan modernizatsiya va diversifikatsiya ishlarining natijasidir. Shuningdek 2017 - yilda yalpi ichki mahsulot 7,8 foiz, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 6,6 foiz, chakana savdo hajmi 14,4 foiz, qurilish-montaj ishlari hajmi 12,5 foizga, xizmat ko'rsatish hajmi 12,5 foizga oshdi. Yillik byudjet yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,1 foiz profitsit bilan bajarildi. Inflatsiya darajasi 5,7 foizni tashkil qildi, ya'ni prognoz ko'rsatkichlari doirasida bo'ldi.⁴³

Davlatning ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini o'z vaqtida to'liq va ijobiy hal etish ma'lum moliyaviy asosni talab etadiki, aynan ushbu asosning markaziy bo'g'inini davlat byudjeti daromadlari tashkil etadi. Davlat moliyasini sog'lomlashtirish davlat byudjeti daromadlarining barqarorligini, ularni shakllantirish manbalari mukammal nisbatini va butligini ta'minlash O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan institutsional islohotlarni hozirgi bosqichida yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Davlat byudjetlarning daromadlarini ko'paytirish orqali ularning moliyaviy imkoniyatlarini oshirish islohotlarning ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Hozirgi kundagi davlat byudjeti daromadlarida soliqlar va majburiy to'lovlar qariyb 94% ni tashkil qilayotgan bir sharoitda davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda soliqsiz daromadlarning past darajasi ushbu sohada islohotlarni kuchaytirishni talab qiladi. Mulkiy qiymatliklarni ijaraga berish va xususiylashtirish natijasida mahalliy byudjetlarga kelib tushadigan daromadlarning samaradorligini oshirish uchun mavjud mulkiy qiymatliklarni inventarizatsiyadan o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, davlat unitar korxonalari va davlat ulushi mavjud bo'lgan hissadorlik jamiyatlari ustidan nazorat tizimini kuchaytirish orqali byudjetga tushumlar samaradorligini oshirish lozimdir.

Jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy tarkibining shakllanishi va rivojlanishida davlatning tartibga solish funksiyasi muhim rol o'ynaydi. Davlatning iqtisodiy va ijtimoiy siyosatini amalga oshirshining mexanizmlaridan biri jamiyatning moliya tizimi hisoblanib uning markaziy bo'g'inini davlat byudjeti tashkil etadi.

⁴³ Xalq So'zi gazetasi, Toshkent 2017-yil 16 yanvar. № 16 son.

Davlat byudjeti orqali mamlakat miqyosida yaratilgan yalpi ichki mahsulot taqsimlanish jarayonida davlat ixtiyoridagi markazlashtirilgan pul fondi shakllantiriladi. Byudjet davlat daromadlarining asosiy qismini o'zida jamlaydi va davlatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy vazifalarini amalga oshirish uchun zaruriy pul mablag'lari fondini o'zida aks ettiradi. Jamiyat taraqqiyotida xo'jalik mexanizmining bosqichma-bosqich takomillashib borishi, davlatlarni jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy tizimidagi rolini ortishi ularning ixtiyorida ijtimoiy ishlab chiqarish natijasida yaratiladigan qo'shilgan qiymatning bir qismi hisobiga doimiy ravishda pul resurslarini shakllantirilishini obyektiv zarur qilib qo'yadi. Bunday davlat ixtiyoridagi markazlashtirilgan pul fondlarining asosiy shakli byudjet bo'lib, byudjet davlatning asosiy moliyaviy rejasi hisoblanadi.

Davlat byudjetini shakllantirish jarayoni o'z-o'zidan ayonki islohotlarga muhtojdir va bu jaroyonda quyidagilarni amalga oshirilishi lozim⁴⁴:

- mahalliy idoralarga keng darajadagi byudjet vakolatlari berilishi kerak. Jumladan, hududiy idoralarga o'z hududida soliq yig'ish va byudjet tuzishda vakolat berilishi va ularni mablag'lar bilan ta'minlanmagan majburiyatlar yukidan ozod etilishi kerak;

- davlat mahalliy idoralariga soliq va byudjet mustaqilligi berish bilan birga, ularga ushbu jarayon uchun javobgarlik mas'uliyatini ham yuklab qo'yish kerak;

- mahalliy hokimiyatlar quyidagi ishlarni bajarishi lozim:

o'zlarining hududlaridagi daromad salohiyatini oshirish va ta'minlash javobgarligini olish;

- o'zlarining xududidagi daromad salohiyatini oshirish va ta'minlash huquqidan samarali va mas'uliyatli tarzda foydalanish. Bundan ko'rinib turibdiki byudjetda to'planayotgan daromadlar asosan xalq, jamiyatning iqtisodiy-ijtimoiy hayotining rivoji uchun xizmat qilishi ko'zda tutiladi.

⁴⁴ Qosimova M, Mustafqulov O. "Byudjet daromadlarini shakllantirish va undan samarali foydalanish milliy iqtisodiyot taraqqiyotining garovidir" O'zRPhDBA "Milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishda davlat moliyaviy resurslarini oqilona boshqarishning dolzarb masalalari" te'zislari to'plami. Toshkent-2016 yil 78-b.

Byudjet daromadlaridan oqilona foydalanish jamiyat taraqqiyotida demokratik prinsiplarining rivojlanishiga, jamiyatning yuqori va pastki qatlam orasidagi tafovutni kamaytirishga xizmat qilishi koʻzda tutiladi.

Davlatning moliyaviy faoliyati, eng avvalo, davlat byudjetini shakllantirish, uning ijro etilishini taʼminlash, soliq siyosatini amalga oshirish, bank-kredit tizimini samarali ishlatish, byudjet taqchilligini boshqarish kabi sohalarini qamrab oladi. Byudjetning uch asosiy holati farqlanadi: taqchillik, profitsit va mutanosib holat. Mutanosib byudjet – xarajatlar va daromadlar miqdori bir-biriga teng boʻladi. Iqtisodiy nazariyada byudjet taqchilligi umumiy xarajatlar hajmidan 1,0 foizga oshib ketmasa, bunday byudjet mutanosib deb hisoblanadi. Byudjet xarajatlarining daromadlardan oshib ketishi (byudjetning salbiy saldos) byudjet taqchilligini anglatadi. Byudjet daromadlarining xarajatlardan oshib ketishi (byudjetning ijobiy saldos) byudjet profitsitini anglatadi.

Byudjetning sogʻlom faoliyat koʻrsatishi unga tegishli boʻlgan daromadlar va xarajatlarning tengligini taqozo etadi. Haqiqatdan ham maʼlum miqdordagi xarajatlarni amalga oshirish uchun byudjet shu miqdordagi daromadlarga ega boʻlishi kerak. Aks olda bu xarajatlarni amalga oshirishning iloji boʻlmaydi. Byudjet daromadlari va xarajatlarining tengligi byudjetni balanslashtirilganligidan dalolat beradi.

Davlatni jamiyat hayotining barcha sohalaridagi rolining uzluksiz oʻsib borishi, uning vazifalarining kengayishi, iqtisodiyotga investitsiyalarni yoʻnaltirish byudjet taqchilligiga olib keladi. Byudjet taqchilligining vujudga kelishiga quyidagilar sabab boʻladi: maqsadsiz xarajatlar hajmining oʻsib borishi; ishlab chiqarishning pasayib ketishi; tovarlar bilan taʼminlanmagan pul emissiyasi; harbiy sarf-xarajatlarning oʻsishi; yashirin iqtisodiyot. Byudjet taqchilligining oʻzgarishi davriy inqiroz va yuksalishlarni ham aks ettiradi, inqirozlar davrida byudjet mablagʻlari hisobidan iqtisodiyotning maʼlum sektorlarini moliyaviy taʼminlab turishga, umummilliy ahamiyatga ega boʻlgan tarmoqlarda investitsiyalar hajmini saqlab qolishga majbur boʻladi. Lekin, Davlat byudjeti gʻazna ijrosida xarajatlarini kamaytirish – eng oson va eng ogʻir yoʻldir. Davlat faqat zarur boʻlgan chora-

tadbirlarni moliyalashtiradi. Shuningdek, jamiyatda zarur xizmatlarning keskin kamayishi kuzatiladi. Bunday qadamlar jamiyatda ijtimoiy keskinlikka olib keladi va siyosiy barqarorligini buzadi. Shuning uchun hukumat Davlat byudjetining taqchilligini boshqarishning boshqa usullarini qoʻllaydi, ijtimoiy dasturlarni qisqartirish yoʻli kerakli holatlarda ishlatiladi.

Oʻzbekiston Respublikasida davlat moliyasining tarkibiy qismi Davlat byudjeti, davlat maqsadli jamgʻarmalari, davlat korxonalarining moliyasi, davlat kreditidan iborat. Oʻzbekiston Respublikasi konsolidatsiyalashgan byudjeti tarkibiga Davlat byudjeti, davlat maqsadli jamgʻarmalarining byudjetlari, Oʻzbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamgʻarmasi kiradi. Hozirgi kunda davlat moliyasining samarali faoliyati iqtisodiy oʻsishning sifatiga va ijtimoiy farovonlik darajasiga bevosita taʼsir koʻrsatadi. Shuning uchun ham keyingi yillarda davlat moliyasi muammolariga katta eʼtibor qaratilmoqda.

Iqtisodiy islohotlarning muvafaqqiyati avvalombor taraqqiyot strategiyasini bilan uzviy bogʻliqdir. Taʼkidlash kerakki, mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar, jumladan, davlat moliyasi, byudjet tizimi va davlat maqsadli jamgʻarmalari sohalaridagi tub oʻzgarishlar inson farovonligini taʼminlashga xizmat qiladi. Davlat moliyasi, davlat byudjeti sohalarini maqsadli boshqarishning fundamental asosini inson uchun munosib turmush va faoliyat sharoitlarini yaratib berish tashkil etadi. Respublikamizda amalga oshirilayotgan byudjet siyosati, davlat maqsadli jamgʻarmalarining, jumladan Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamgʻarmasining daromadlar bazasini kengaytirish va xarajatlarini nazoratini kuchaytirish masalalari aholi farovonligi taʼminlash, aholini ijtimoiy jihatdan himoyalashga qaratilgan. Davlat maqsadli jamgʻarmalari – davlatning alohida xarajatlarini moliyalashtirish uchun va mamlakatning byudjet tizimi tarkibida jamlanadigan mablagʻlar tushumi va maqsadli ishlatilishi ustidan davlat nazoratini taʼminlash maqsadida amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq shakllantiriladigan jamgʻarmalardir. Davlat maqsadli jamgʻarmalari - Davlat byudjeti tarkibida jamlantiriladigan jamgʻarmalar boʻlib, ularning har biri uchun mablagʻlar manbalari, har bir manbadan mablagʻ tushishi

normalari va shartlari, shuningdek shu mablag'laridan foydalanilishi mumkin bo'lgan maqsadlar qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasida xalq farovonligini belgilovchi asosiy omil sifatida davlat moliyasi va davlat maqsadli jamg'armalari hamda ularning pul aylanmasining barqarorligi belgilab olindi. Ijtimoiy rivojlanish jarayonida maqsadli jamg'armalarni tashkil etish davlatning o'z funksiya va vazifalarini to'liq ado etish maqsadida amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I. Karimov ta'kidlaganidek, keksalarimizga ko'rsatilayotgan maxsus yordamlar, ularning moddiy, ijtimoiy, maishiy ta'minotini yaxshilashga qaratilgan ishlarimiz bilan birga, ular yashayotgan xonadonlar, mahallalar, qishloq va shaharlarimizni obod va farovon qilish borasidagi faoliyatimiz va ularning amaliy samarasi, hech shubhasiz, keksalarimizning hayotini yanada mazmunli va fayzli qilishga qaratilgani bilan alohida e'tiborlidir. Bu borada birinchi navbatda yolg'iz qariyalar, pensioner va nogironlarni ijtimoiy muhofaza qilish tizimini yanada mustahkamlash va rivojlantirishning davlat dasturi qabul qilingani va bu yo'nalishda 5-6 yilga mo'ljallab rejalashtirilgan ishlarimiz ayniqsa e'tiborga sazovor.

Davlat byudjeti tarkibidagi maqsadli jamg'armalar davlatning qator ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ekologik va boshqa funksiyalarini amalga oshirishning moliyaviy asosini tashkil etadi. Byudjet kodeksining 6-bobi 36- moddasida "Davlat maqsadli jamg'armalari va byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalari" tartiblangan. Moliyaviy resurslardan samarali foydalanish zaruriyati Davlat byudjeti mablag'lari bilan amalga oshiriladigan moliyaviy operatsiyalarining doimiy nazoratini talab qiladi. Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti, jumladan davlat maqsadli jamg'armalarining daromad va xarajatlarini samarali boshqarish, Davlat byudjeti balanslilikini ta'minlash maqsadida 2014 yilda Byudjet Kodeksi amaliyotga kiritildi. Byudjet Kodeksining qabul qilinishi amaldagi Soliq kodeksi bilan birgalikda davlat moliyasining yagona bixillashtirilgan, xalqaro standartlarga mos bo'lgan qonunchilik bazasini shakllantirishga, byudjet sohasidagi huquqiy munosabatlarni

tizimlashtirishga, shuningdek, byudjet jarayonining barcha bosqichlari va darajalarida yagona huquqiy normalar va yondoshuvlar qo'llanilishini, mamlakat byudjet tizimining ochiq-oshkoraligini va barqarorligini ta'minlashga imkon beradi.

O'zbekiston Respublikasida davlat maqsadli jamg'armalarini boshqarishda vujudga kelayotgan muammolar mazkur tizimni takomillashtirib borishda yangi qonunchilik asoslarini yaratish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining joriy va istiqboldagi chora-tadbirlarini belgilashda jahon moliyaviy inqirozi oqibatlarining ta'sirini har tomonlama hisobga olish, iqtisodiy rivojlanish dasturlarini ushbu jarayonlar ta'siri nuqtai-nazaridan shakllantirish va ijtimoiy kafolatlarni ta'minlashda maqsadli jamg'armalarni samarali boshqarish muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi sharoitda davlat maqsadli jamg'armalari faoliyatining dolzarbligi saqlanib qolmoqda. Chunki:

- jamg'armalar davlatning iqtisodiyotga aralashuviga imkon beradi va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlashni ta'minlaydi;
- jamg'armalarning maqsadli xarakteri va maqsadi ularning mablag'laridan samarali foydalanishni davlat tomonidan nazorat qilishni yengillashtiradi;
- ma'lum bir hollarda (faol saldo mavjudligi) jamg'armalarning mablag'i byudjet taqchilligini qoplash uchun jalb qilinishi mumkin.

Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o'tishda islohotlarning huquqiy asosini barpo etish va uni muntazam ravishda islohotlarga monand ravishda takomillashtirib borishni alohida ta'kidlash zarurdir. Bu holat davlat moliyasi, davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari faoliyatini samarali boshqarishning muhim ustuvorlaridan biri sifatida qaralishi zarur. Zero davlat iqtisodiy faoliyatning huquqiy asoslarini, o'ziga xos bozor shart-sharoitlarini vujudga keltiradi va tasdiqlaydi. Moliyaviy resurslar davlat miqyosida yetarli darajada mavjudligi jamiyatni yanada barqaror rivojlanishida, iqtisodiy qiyinchiliklar va moliyaviy-iqtisodiy inqirozlardan xalos etuvchi manba sifatida ham namoyon bo'ladi. Hozirgi kunda mamlakat moliya tizimi oldiga qo'yilgan

muhim vazifalardan biri – davlat maqsadli jamg'armalarining faoliyatidan unumli foydalanish hisoblanadi.

Moliyaviy tizimni shakllantirish va uni barqarorlashtirish, mazkur sohani davlat tomonidan boshqarish samaradorligini asosiy shartlaridan biri sifatida amal qiladi. Bu borada davlat moliyasi rivojini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etib, u bir tomondan byudjet sohasi samaradorligiga, ikkinchi tomondan esa, davlat maqsadli jamg'armalari faoliyati natijaviyligiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. Bu vazifa faqat davlatning tashabbusi va faol ishtirokida bajarilishi mumkin bo'lib, bunda byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalar mablag'larini ishlatish xususiyatiga e'tibor qaratish va mablag'larini maqsadli boshqarish bo'yicha tegishli tashkiliy-iqtisodiy, huquqiy va maxsus chora-tadbirlar majmuasi amalga oshiriladi.

Davlatning bevosita ishtiroki moliya tizimining jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida barqarorligi ta'minlashga xizmat qilib, davlat maqsadli jamg'armalari tizimida shakllangan ijobiy o'zgarishlarni saqlab qolish va uni yanada rivojlantirishga imkon berdi.

O'zbekiston Respublikasida davlat maqsadli jamg'armalar tizimini isloh qilishning asosiy sababi davlatning fuqarolarni pensiya va nafaqalar ta'minoti hamda ish bilan ta'minlashga oid majburiyatlarini bajarishi uchun moliyaviy resurslarning zarurligidir. Bu muammo aholining keksayib borishiga muvofiq kuchayib murakkablashib boradi va mamlakatda vujudga kelgan iqtisodiy, ijtimoiy va demografik vaziyatlardan kelib chiqqan holda muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda pensiya va nafaqa tizimini isloh qilishning muhimligi fuqarolarni iqtisodiy manfaatlariga bevosita bog'liqligi bilan belgilanadi. Respublikamizda davlat maqsadli jamg'armalarini isloh etishning obyektiv zaruriyati davlat maqsadli jamg'armalari faoliyatini taraqqiy ettirishni shart qilib qo'ymoqda.

G'aznachilik tizimini yaratishda zamonaviy kompyuter texnologiyalarini qo'llashning maqsadi tizimda axborotlarga bo'lgan talabni to'liq ta'minlash, davlat miqyosida moliyaviy axborotlarni qayta ishlashning yangi avtomatlashtirilgan axborot tizimini yaratish natijasida moliyaviy resurslarni boshqarishni tubdan

o'zgartirishga qaratilgan. Davlat moliyasini boshqarishning axborot tizimi majmuaviy dasturining turli modullari orasida tegishli informatsiyalar bilan almashinuv jarayonlari modullararo mexanizmlar yordamida amalga oshiriladi. Masalan, "Daromadlarni boshqarish" moduli yordamida davlat byudjetiga kelib tushadigan soliq to'lovlari va boshqa majburiy to'lovlarning turlari va ularning qaysi byudjet bo'g'iniga tushirilishi lozimligiga qarab ro'yxatga olib borish, belgilab qo'yilgan normativlarga muvofiq turli darajali byudjetlarga tushiriladigan mablag'larning kundalik taqsimlanishi haqida ma'lumotlar olish, Yagona g'azna hisobraqamiga tushgan mablag'lar haqidagi kundalik ma'lumotlarni jamlash, byudjetga tushgan solikli va soliqsiz to'lovlarining taqsimoti haqida ma'lumotlar olish mumkin. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan yirik va strategik ahamiyatga molik investitsiya loyihalarini moliyalashtirish, aholini ijtimoiy himoyalash xarajatlarini to'lash, xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilishda davlat maqsadli jamg'armalarining hissasi ancha yuqori bo'lmoqda. Davlat maqsadli jamg'armalarining daromadlar qismi bo'yicha barcha ko'rsatkichlarning oshirib bajarilganligi tufayli xarajatlarning to'lovini o'z vaqtida amalga oshirish imkoni tug'ildi.

Bozor iqtisodiyotini rivojlantirish tadbirlari, iqtisodiy-ijtimoiy islohotlar, byudjet tizimi va davlat maqsadli jamg'armalari faoliyatini tubdan qayta qurish va boshqaruv jarayonlarini bosqichma-bosqich takomillashtirish kabi strategik maqsadlar nazarda tutildi. O'zbekiston Respublikasi taraqqiyotining bugungi bosqichida iqtisodiyotni barqaror va mutanosib rivojlantirish, jahon bozorida mustahkam o'rin egallash, shular asosida izchil iqtisodiy o'sishni ta'minlash, xalqimizning hayot darajasi va farovonligini yanada oshirish borasidagi vazifalarni to'liq va samarali amalga oshirish sharoitida iqtisodiyotni barqarorlashtirish vazifalarini bajarishda davlat maqsadli jamg'armalarining amal qilish mexanizmini takomillashtirish kerak.

O'zbekiston Respublikasi davlat moliya tizimida mavjud muammolar sifatida quyidagilarni e'tirof etishimiz mumkin:

- davlat moliyaviy resurslaridan foydalanish samaradorligi to‘liqligicha davlat moliyaviy nazorati tomonidan qamrab olinmaganligi;

- davlatning o‘z funktsiya va vazifalarini bajarish uchun dastak bo‘lib hisoblangan davlat moliyasining tarkibiy qismlaridan biri davlat kreditida davlatning kreditor bo‘lib ishtirok etish holatlaridan foydalanish miqdorining pastligi;

- rivojlangan davlatlar amaliyotida davlat byudjeti tarkibida to‘g‘ri soliqlar ulushi yuqori hisoblanadi, shundan kelib chiqib, mamlakatimiz davlat byudjeti daromadlari tarkibida egri soliqlarning yuqori ulushda ekanligi;

- xarajatlarning ijtimoiy yo‘naltirilganini saqlab qolgan holda Davlat byudjetining barcha darajalarida mutanosiblikni ta‘minlash, mahalliy byudjetlarning daromad qismini mustahkamlashga qaratilgan byudjetlararo munosabatlarni takomillashtirishga oid muammolardan byutlar orasida subvensiya munosabatlarining mavjudligi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-martdagi PQ-2847 sonli “Moliya organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qaroriga ko‘ra davlat moliyasini takomillashtirishga oid quyidagilar O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi hamda uning bo‘linmalari faoliyatining ustuvor vazifalari hamda yo‘nalishlari etib belgilandi:⁴⁵

- iqtisodiy o‘rishning barqaror yuqori sur‘atlarini, iqtisodiyot va ijtimoiy sohaning moliyaviy mutanosibligini ta‘minlashda, davlatning ijtimoiy majburiyatlarini to‘liq va o‘z vaqtida bajarishda, yirik investitsiya loyihalarini moliyalashtirish va mamlakatning mudofaa qobiliyatini mustahkamlashda moliya organlarining rolini oshirishga yo‘naltirilgan yagona davlat soliq-byudjet siyosatini amalga oshirish;

- iqtisodiyot va aholiga soliq yukini kamaytirish, ishlab chiqarish samaradorligini ta‘minlash, mineral-xom ashyo, yer-suv hamda boshqa resurslar va uskunalardan oqilona foydalanishda soliq hamda boshqa majburiy to‘lovlarning

⁴⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-martdagi PQ-2847 sonli “Moliya organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.

rag'batlantiruvchi rolini kuchaytirish yo'li bilan soliq tizimini izchil takomillashtirib borish, soliq ma'muriyatchiligi samaradorligini oshirish, soliqlar hamda boshqa majburiy to'lovlarni hisoblash va to'lash tartibini soddalashtirish, shuningdek, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning to'liq yig'ilishini ta'minlash maqsadida ularning stavkalarini optimallashtirish;

- byudjetlararo munosabatlarni tubdan takomillashtirish, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining daromad bazasini barcha choralar bilan kengaytirish, viloyatlar va tumanlarni subvensiyadan chiqarib, ularning mutanosibligi va o'zini o'zi qoplay olishini ta'minlash, hududlar hokimliklari bilan birgalikda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar hamda Toshkent shahrini kompleks va intensiv rivojlantirish asosida Davlat byudjetiga qo'shimcha manbalar jalb etish yuzasidan tizimli ishlarni amalga oshirish, tabiiy va iqtisodiy salohiyatdan yanada to'liq va samarali foydalanish, hududlar iqtisodiyotini modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash;

- moliyaviy resurslarni iqtisodiy taraqqiyotning eng ustuvor yo'nalishlariga, ijtimoiy sohani, ayniqsa qishloq joylarida, jadal rivojlantirishga, maqsadli investitsiya dasturlarini moliyalashtirishga, belgilangan me'yorlarga muvofiq ularni real moliyalashtirish manbalari bilan mustahkamlashga, ushbu asosda kreditorlik va debitorlik qarzlarni kamaytirishga jamlash;

- iqtisodiyot bazaviy tarmoqlarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash borasidagi ishlarni muvofiqlashtirish, qishloq xo'jaligini moliyaviy qo'llab-quvvatlashning samarali usul va mexanizmlarini joriy etish, tovarlar va xizmatlarning ayrim turlariga narx va tariflar belgilash tartibini takomillashtirish hamda to'lov intizomini mustahkamlash;

- byudjet tizimidagi byudjet mablag'laridan maqsadli hamda oqilona foydalanish ustidan davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirish, qat'iy iqtisod qilish, ishlab chiqarish va muomala xarajatlarini kamaytirish, nobudgarchilik va talon-torajlikni, maqsadga nomuvofiq chiqimlarni tugatish yuzasidan vazirliklar, idoralar, xo'jalik subyektlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan birgalikda keng qamrovli profilaktika ishlarini olib borish;

- O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki va boshqa valyuta nazorati organlari bilan birgalikda valyuta-moliya siyosatining asosiy tamoyillari va usullarini shakllantirish, davlatning valyuta resurslarini ko‘paytirish va ulardan samarali foydalanish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

- fuqarolarning pensiya ta‘minoti sohasida davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlarini ishlab chiqish, Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi daromadlari va xarajatlarining mutanosibligini ta‘minlash, Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi tomonidan uning zimmasiga yuklangan vazifalar va funksiyalar, xususan pensiyalar hamda boshqa tegishli to‘lovlarni tayinlash va o‘z vaqtida to‘lash bo‘yicha o‘rnatilgan qoidalarining qo‘llanilishini muvofiqlashtirish hamda ularni nazorat qilish;


- sug‘urta tashkilotlarining sug‘urta munosabatlari barcha qatnashchilarining huquq va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta‘minlashga qaratilgan faoliyatini nazorat qilish, buxgalterlik hisobi va hisobotining yagona metodologiyasini shakllantirish va amalga oshirish, auditorlik faoliyatini tartibga solish, mamlakatning moliya bozorlarini rivojlantirish bo‘yicha davlat siyosatini amalga oshirishda ishtirok etish;

- davlat moliya siyosati sohasida kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini tashkil etish, Moliya vazirligi, uning markaziy apparati hamda tarkibiy bo‘linmalarining ish shakllarini va usullarini tubdan takomillashtirish, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlariga o‘z vaqtida e‘tibor qaratish, zimmaga yuklatilgan vazifalarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishi uchun moliya organlari xodimlarining mas‘uliyatini oshirish.

3.2. Davlat moliyasini rivojlantirish borasida xorijiy mamlakatlar tajribasi

Har bir mamlakat o‘zining moliya tizimiga ega. Faqat uning tarkibi bilan bir-biridan farqlanishi mumkin. Aynan mamlakatlarning moliya tizimi qay darajada shakllanganligi nafaqat mamlakatning rivojlanish darajasini, balki uning tanlagan yo‘li, tuzilmaviy ko‘rinishini ham ifodalab beradi. Rivojlangan mamlakatlarda moliya atamasi kengroq tushuncha bo‘lib, u davlat, korporatsiyalar,

xorijiy davlatlar va boshqa turdagi yuridik va jismoniy shaxslar bilan bo‘ladigan iqtisodiy munosabatlar yig‘indisini ifodalaydi. Shundan kelib chiqqan holda rivojlangan mamlakatlarning moliya tizimi quyidagicha tasniflanadi:



3.2-rasm. Xorijiy mamlakatlarda moliya tizimining ko‘rinishi⁴⁶

Shuningdek xorijiy mamlakatlar moliya tizimi tarkibida qarz beruvchi, qarz oluvchi va investorlar o‘rtasidagi fondlar ham kiritilishi mumkin. Moliya tizimida sug‘urta tashkilotlari ham alohia ahamiyat kasb etib ular aholi va korxonalarning mablag‘larini qayta taqsimlashda faol ishtirok etadi

Xorijiy mamlakatlar davlat moliya tizimida O‘zbekiston Respublikasi moliya tizimidan farqli ravishda davlat korporatsiyalari moliyasi ajralib turadi. Shuningdek xorijiy mamlakatlarning davlat moliya sohasida munitspal kreditlar ham mavjud bo‘lib, ular mahalliy byudjetlar kamomadi uchun sarflanadi. Rivojlangan yetakchi xorijiy mamlakatlar moliya tizimining yetakchi bo‘g‘inlaridan biri Davlat byudjetidir. U davlat va o‘z-o‘zini boshqarish hududiy organlarining funksiyalari va vazifalarini moliyaviy ta‘minlashga mo‘ljallangan markazlashtirilgan pul mablag‘lari fondini shakllantirish va undan foydalanish shaklidan iboratdir.

Davlat byudjeti mamlakatning joriy yildagi asosiy moliyaviy rejasi hisoblanib, qonun kuchiga egadir. U har yili mamlakatning qonunchilik hokimiyat organi parlament tomonidan tasdiqlanadi. Favqulodda vaziyatlarda (urushlar, iqtisodiy tanazzullar va boshqalar davrida) hukumat Davlat byudjetining mablag‘lariga

⁴⁶ www.e-reading.club web sayti ma’lumotlari asosida talaba tomonidan tuzildi.

tayanadi va ular yordamida o'sib boruvchi davlat xarajatlarini qoplaydi. Davlat byudjetining asosiy daromadlari soliqlardan iborat bo'lib, ular yordamida byudjet daromadlarining 70 foizdan 90 foizgacha va ayrim davrlarda undan ham ko'proq qismi shakllantiriladi. Bozor iqtisodiyoti rivojlangan xorijiy mamlakatlarda asosiy soliqlar hisoblangan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i, korporatsiyalar foydasidan olinadigan soliq, aksizlar, qo'shilgan qiymat solig'i va bojxona bojlari Davlat byudjetiga birlashtirilgan.⁴⁷

Davlat byudjetidan harbiy maqsadlarga mo'ljallangan xarajatlar, iqtisodiyotga aralashuv xarajatlari, davlat apparatini saqlash xarajatlari, ijtimoiy xarajatlar, subsidiyalar amalga oshiriladi va rivojlanayotgan mamlakatlarga kreditlar taqdim etiladi. Bir vaqtning o'zida, Davlat byudjeti mahalliy hokimiyat organlariga, hukumat maxsus fondlariga va davlat korxonalariga subsidiyalar va kreditlar berish orqali mamlakat moliya tizimining barcha bo'g'inlariga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

AQSH, Germaniya, XXR kabi xorijiy mamlakatlarda Davlat byudjetlari uchun doimiy ravishdagi byudjet defitsiti xos bo'lib, u davlat zayomlari hisobidan qoplanadi. Davlat zayomlarining muomalaga chiqarilishi davlat qarzining o'sishiga olib keladi. Davlat qarzi oldin chiqarilgan va hozirgi paytga qadar qaytarilmagan (uzilmagan) barcha davlat zayomlarining foizlari bilan qo'shib hisoblagandagi umumiy summasidan iborat.


Hududiy moliya yetakchi xorijiy mamlakatlardagi moliya tizimining ikkinchi bo'g'inidir. Bu federativ davlatlarda federatsiya a'zolarining moliyasi va federatsiya a'zolari hamda munitsipalitetlarga tegishli bo'lgan mahalliy byudjetlar, korxonalar moliyasidan iborat.

Yetakchi xorijiy mamlakatlar moliya tizimining uchinchi bo'g'inini davlat krediti hisoblanadi. Bu bir tomondan, davlat va ikkinchi tomondan, yuridik va jismoniy shaxslar o'rtasidagi kredit munosabatlaridan iborat bo'lib, unga ko'ra davlat va boshqaruvning mahalliy organlari, asosan, mablag'larni qarzga oluvchilar sifatida maydonga chiqadi. Davlat zayomlari va mahalliy zayomlar,

⁴⁷ Vahobov A, Malikov T. "Moliya" T.: Noshir 2011-yil.

odatda, byudjet defitsiti mavjud bo'lsa, ya'ni odatdagi daromadlar davlatning xarajatlarini qoplamasa muomalaga chiqariladi. Mahalliy byudjetlarga ikkinchi darajali ahamiyat kasb etuvchi soliqlar (asosan, mulkiy soliqlar) biriktirilgan. Ijtimoiy maqsadlarga yo'naltiriladigan mablag'larning salmog'i mahalliy byudjetlarda Davlat byudjetiga nisbatan ancha yuqori. Bu byudjetlar ham doimiy ravishda defitsitli bo'lib, ular Davlat byudjetidan hukumat kafolati ostida subvensiya va kreditlar yo'li bilan kerakli mablag'larni oladi.

Yetakchi xorijiy mamlakatlar davlat moliyasining muhim bo'g'inlaridan yana biri bu maxsus byudjetdan tashqari fondlardir. Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda eng yirik maxsus byudjetdan tashqari fondlar orasida milliy sug'urta fondlari alohida o'rinni egallaydi. Bu fondlar korxona ishchilari va tadbirkorlarning sug'urta badallari hamda Davlat byudjetidan beriladigan dotatsiyalar hisobidan tashkil topadi.



3.3-rasm. AQSH davlatining moliya tizimi ko'rinishi.⁴⁸

⁴⁸ www.wikipedia.org web sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Milliy sug'urta fondlarining mablag'lari yosh, nogiron va boquvchisini yo'qotgan fuqarolarga pensiyalar to'lashga, vaqtinchalik mehnat qobiliyatini yo'qotgani, homiladorligi, ishsizligi va h.k.lar bo'yicha nafaqalar berishga sarflanadi. Bunda mablag'larning asosiy qismi yosh bo'yicha pensiyalarni to'lashga yo'naltiriladi. Barcha rivojlangan xorijiy mamlakatlarda pensianing miqdori ish haqi va to'langan sug'urta badallari miqdoriga nisbatan belgilanadi. Rivojlangan mamlakatlardan biri AQSH misolida davlat moliyasi va uning tarkibiy qismlarini tahlil qilamiz. AQSH davlati federal ko'rinishda bo'lganligi uchun uning byudjet pog'onasi uch pog'onali bo'ladi. AQSH davlati dunyoda YaIM hajmi bo'yicha yuqori darajada bo'lishiga qaramasdan, davlat qarzi hamda davlat byudjetining defitsiti har yili kuzatilmoqda.

AQSH davlatining moliya tizimi quyidagicha ko'rinishga ega:


AQSH federal davlatida byudjet tizimi 3 bo'g'indan iborat:

- Davlat byudjeti (federal yoki markaziy hukumat byudjeti);
- Federal a'zolar byudjeti (shtatlar byudjeti);
- Mahalliy byudjetlar;

Davlat byudjetlarida yirik pul mablaglarini to'plash davlatning moliyaviy siyosatini samarali olib borilishini zaruriy sharti hisoblanadi. Bu mablag'lar davlatga davlat apparatini boshqarishga, davlat zayomlari bo'yicha foizlarni to'lashga, shuningdek o'sib borayotgan ijtimoiy xarajatlarni amalga oshirishga yordam beradi.

Byudjetni ushlab turishga bir qancha obyektiv va subyektiv sabablar ta'sir ko'rsatadi. Obyektiv sabablarga avvalo, ishlab chiqarish munosabatlarining xarakteri va byudjet mohiyatiga hal qiluvchi ta'sir o'tkazuvchi ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish darajasi kiradi. Jamiyat ishlab chiqarish uslublarining, yalpi mahsulotni taqsimlashning va egalik munosabatlarining o'zgarishi natijasida byudjet mohiyati, uni tarkibi tubdan o'zgardi. Subyektiv omillarga hukumat siyosati, rivojlanish ustuvorligi, ichki va tashqi iqtisodiy holati va boshqalar kiradi.

AQSH davlat byudjetining daromadlari quyidagicha:




3.4-rasm. AQSH davlatining 2013-2017 yillarda davlat byudjeti tarkibi.⁴⁹

Yuqoridagi rasm orqali biz AQSH davlatining byudjeti tarkibini ko'rishimiz mumkin. Uning tarkibida asosiy o'rinni jismoniy shaxslar va uy xo'jaliklari daromad solig'i egallab uning ulushi 2013-yilda 76,4 foizni, 2014-yilda 77,3 foizni, 2015-yilda 76,7 foizni, 2016-yilda 76,3 foizni, 2017-yilda esa 77,8 foizni tashkil etgan. Shuningdek korporatsiyalarning daromad solig'i ham yillar davomida 10 foiz atrofida tebrangan. AQSH davlat byudjetining daromadlariga aholi daromadidan olinadigan soliqlar, korporatsiyalar foydasidan olinadigan soliq, aksiz solig'i, QQS, bojxona bojlari, shuningdek markaziy hukumat tomonidan chiqariladigan davlat zayomlaridan keladigan daromadlar. Federatsiya a'zolarining byudjeti daromadlari asosan mahsulotlar oldi sotdisi va yalpi tushumdan tushadigan soliqlar bilan to'ldiriladi. Mahalliy byudjet daromadlari ikkinchi darajali soliqlardan shakllanadi va mahalliy o'z-o'zini boshqaruv ya'ni hudularda amalga oshiriladigan funksiyalarni bajaradi.

⁴⁹ Financial Report of the United States government FY 2016y. Department of the Treasury January 12, 2017 y 2 p

2017-yilda AQSh davlat budjeti sof xarajatlar




3.5-rasm. AQSH davlat byudjetining 2017-yilda xarajatlari yoʻnalishlari boʻyicha ulushi⁵⁰

AQSH davlati federal byudjet xarajatlari yildan-yilga oʻsib bormoqda va u mablagʻlar ichida salmoqli oʻrin egallaydi. Jami xarajatlarda YaIMning 27-32 % miqdorida mablagʻ ajratiladi. AQSh davlat byudjeti xarajatlari tarkibida asosiy rolni sogʻliqni saqlash va aholiga xizmat koʻrsatish xarajatlari (jamiga nisbatan 24 %) egallagan, keyingi oʻrinlarda ijtimoiy himoya xarajatlari, faxriy ishlar xarajatlari, mudofaa xarajatlari, davlat majburiyatlari boʻyicha foizlar va boshqa xarajatlar oʻrin olgan.

AQSH davlat byudjetining daromadlari yuqori darajada, masalan 2017-yilda 3345,3 mlrd AQSh dollariga teng boʻlsada byudjet xarajatlari ham shunga monand yuqori darajada, shu jumladan 2017-yilda 3932,7 mlrd AQSh dollarini tashkil etgan. Davlat byudjeti holati ancha yillardan buyon defitsit holatida ijro etilmoqda, biz buni quyidagi rasm orqali koʻrishimiz mumkin:

⁵⁰ Financial Report of the United States government FY 2016y. Department of the Treasury January 12, 2017 y 17 p



3.6-rasm. AQSh davlat byudjeti defitsining YaIMga nisbatan 2010-2017 yillardagi holati.⁵¹

Yuqoridagi rasm orqali AQShdagi byudjet holatini ko‘rishimiz mumkin. AQSH byudjeti oxirgi yillarda faqat defitsit bilan ijro etilmoqda. Buning asosiy sabablari ishlab chiqarish darajasining tushishi, xarajatlarning haddan tashqari o‘sib ketishi, tovarlar bilan ta‘minlanmagan pul emissiyasi, yashirin iqtisodiyot va unumsiz sarflarning o‘sib borishi bilan ifodalanmoqda.

AQSH davlatida davlat moliyasining tarkibiy qismlaridan biri byudjetdan tashqari fondlar bo‘lib ular ilmiy tadqiqot fondlari deb nomlanadi. Ilmiy tadqiqot fondlari sanoatda, qurilishda, ilmiy tadqiqotlarning qo‘llab-quvvatlashini moliyalashtirish uchun shuningdek, davlatning ilmiy markazlarini ta‘minlashga qaratilgan fondlardir.

AQSHda 3 ta yirik fond faoliyat ko‘rsatadi:

- 1) Milliy ilmiy fond (MIF);
- 2) Standartlar byurosi ilmiy fondi (SBIF);
- 3) Kredit fondlari- bu davlat banklari, jamg‘arma kassalari va boshqa kredit muassasalarida foydalanishda bo‘lgan, qaytarish va foiz to‘lash sharti bilan olingan resurslar.

⁵¹ www.tradingeconomics.com sayti ma‘lumotlari asosida talaba tomonidan tuzildi.

AQSHda asosan 3 tarmoq bo'yicha yo'naltiriladigan bir qator kredit fondlari mavjud. Ushbu tarmoqlar quyidagilar:

- qishloq xo'jaligi;
- uy-qurilish;
- tashqi iqtisodiy aloqa.

Ijtimoiy fondlar aholiga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishga qaratilgan resurslardir. Aholi sonining ortishi jamiyatning turli ijtimoiy guruhlarida o'rtasida qiziqish chegaralarining ortishi ushbu fondlarning ahamiyatini yanada oshiradi. Davlatning maxsus fondlari huquqiy holatiga ko'ra davlat maxsus fondlari va mahalliy maxsus fondlarga bo'linadi. Davlatning maxsus fondlari markaziy hukumatga qarashli bo'ladi va ularga investitsiya fondi, valyuta fondi, ijtimoiy sug'urta fondiga bo'linadi.

Mahalliy maxsus fondlar mahalliy hokimiyat organlariga tegishli bo'lib ular orasida eng yirigi zayom fondlari hisoblanadi. Ishlanish maqsadiga ko'ra maxsus fondlar: iqtisodiy, ilmiy-tatqiqot, kredit, ijtimoiy sug'urta fondlari va boshqa fondlarga bo'linadi. Biz moliya tizimi shu jumladan davlat moliyasi yuqori darajada rivojlangan davlatlardan biri AQSH davlat moliyasi holatini ko'rib chiqdik, shundan kelib chiqqan holda, mamlakatimiz davlat moliyasini isloh etishda AQSH davlat tajribasidan quyidagi jihatlarni amaliyotga tadbiq etsak maqsadga muvofiq bo'ladi:

- Davlat moliyasi tarkibida davlat kreditining rolini oshirish hamda mahalliy kreditlarni shakllantirish, bu orqali AQSHda doimiy ravishda qo'llaniladigan mahalliy byudjetlarning daromad va xarajatlar tengsizligini yuqori byudjetlar bilan munosabatlarsiz qoplashga erishishimiz mumkin;

- Davlat byudjeti daromadlari tarkibida to'g'ri soliqlar ulushini ko'paytirish ya'ni bu orqali mamlakat aholisining mulkdan va yerdan foydalanish unumdorligini oshishiga erishish;

- Soliqlar va majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlarni tartibga solish, bu orqali AQSHda aynan erkin iqtisodiy hududlarga berilayotgan imtiyozlarni tartibga solish hamda mamlakatning rivojlanish darajalariga ko'ra hududlarga imtiyozlarni

tabaqlashtirish orqali mamlakatning barcha hududlarini kompleks rivojlanishga erishish mumkin;

- Byudjetdan tashqari jamg'armalarning xarajatlar yo'nalishini aniq belgilab shu sohada faoliyat ko'rsatishiga erishish hamda AQSH davlati kabi byudjetdan tashqari jamg'armalarning mablag'laridan samarali foydalib, undan davlat byudjeti defitsitini qoplashda asosiy manbalardan biri sifatida foydalanish;

- Davlat xaridi tizimida AQSH davlatida shakllangan byudjet tashkilotlari uchun korporativ kartochkalar amaliyotini tadbiq etish, bu orqali davlat byudjetining g'azna ijrosi tizimida soddalashtirilgan tizimga erishish.

III - bob bo'yicha xulosa.

Bitiruv malakaviy ishining 3-bobidan quyidagicha xulosalar chiqarildi:

- davlat moliyaviy resurslarining barqarorligi ta'minlash maqsadida ulardan foydalanish samaradorligini bosqichma-bosqich oshirib borish kerak;

- davlatning boshqa subyektlar bilan moliyaviy munosabatlariga kirishish ko'lamlarini kengaytirish joiz;

- davlat moliyasining tarkibiy qismlarini o'zaro muvofiqlikda rivojlantirish bosqichlarini jadallashtirish;

- davlat maqsadli jamg'armalar faoliyatini mustaqilligini ta'minlash, ularning daromad va xarajat yo'nalishlarini aniq belgilab olish zarur.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mamlakatimizda davlat moliyasini tashkil etish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Mamlakatimiz moliya tizimida ushbu maqsadlarga erishishga qaratilgan islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirilib kelinmoqda. Mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida, aholi turmush farvonligini oshirishda, davlatning har yili ishlab chiqadigan va amalga oshiriladigan siyosatining natijaviyligi avvalombor davlat moliyasining boshqarish holati va uni ijro etish samaradorligiga bevosita bog'liq hisoblanadi. Shunday ekan davlat moliyasini ichki imkoniyatlarni inobatga olgan holda, xorijiy davlatlar tajribasiga integratsiyalashgan holda rivojlantirib borishni taqozo etadi.

Davlat moliyasining Byudjet tashkilotlarida amalga oshirilayotgan va ular moliyasini samarali tashkil etishga xizmat qilayotgan tadbir - “O’zASBO” KDni joriy etish. “O’zASBO” KDning tadbiq etilishi natijasida unga o’zgarishlarni markazlashtirilgan tarzda kiritish, shuningdek ma’lumotlarni ishonchli saqlash va rezervlashni ta’minlanadi, barcha mintaqalarda joylashgan Byudjet tashkilotlarining buxgalteriya hisobi va hisoboti bo’yicha ma’lumotlar bazasi tuzilmasi yaratiladi, buxgalteriya hisobi va hisobotining yagona metodologiya bo’yicha yuritilishini ta’minlaydigan markazlashtirilgan ma’lumotlar bazasi yaratiladi, tarixiy xronologiyani kuzatib borish, hisob davrlari, shu jumladan Byudjet tashkilotlarining avvalgi yillardagi faoliyati davrlari bo’yicha hisob yuritish imkoni beriladi, tegishli me’yoriy-huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan analitik va sintetik hisob yuritish bo’yicha registrlarni, turli joriy va davriy hisobotlarni yuritish va ularni qog’ozga tushirish imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Milliy iqtisodiyotning rivojlanishi, chuqur modernizatsiya va zamonaviy diversifikatsiyaning jadallashuvi natijasida real sektorning, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida turli o'zgarishlar, yangilanishlar sezilarli darajada sodir bo'lmoqda. Davlat o'zining moliya tizimida ham byudjet-soliq, investitsiya, baho, pul-kredit va boshqa siyosatlarini iqtisodiy hayot ravnaqi uchun amalga oshirmoqda. Shu jumladan, 2017 - 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining 3-yo'nalishi iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlari bo'lib uning asosiy vazifalaridan biri xarajatlarning ijtimoiy yo'naltirilganini saqlab qolgan holda Davlat byudjetining barcha darajalarida mutanosiblikni ta'minlash, mahalliy byudjetlarning daromad qismini mustahkamlashga qaratilgan byudjetlararo munosabatlarni takomillashtirish, soliq yukini kamaytirish va soliqqa tortish tizimini soddalashtirish siyosatini davom ettirish, soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish va tegishli rag'batlantiruvchi choralarni kengaytirish⁵² hisoblanadi.

Iqtisodiyotning barcha qatlamlari bilan bir qatorda davlat moliyasi va uning barcha bo'g'inlari tizimi ham takomillashib rivojlanib bormoqda. Davlat byudjetining profitsit bilan ijro etilayotganligi, g'aznachilik tizimining yanada mukammallashtirilganligi, davlat maqsadli jamg'armalarining xarajatlari va daromadlarini mustaqil idora etayotganligi hamda davlat kreditidan samarali foydalanilayotganligi fikrimizning yaqqol dalilidir.

Davlat moliyasini yanada rivojlantirish uchun quyidagi islohotlar amalga oshirilishi ma'lum miqdorda o'z hissasini qo'shadi:

- Byudjetlararo munosabatlarni tartibga solish, yuqori byudjetdan quyi byudjetlarga beriladigan subvensiyalar ulushini qisqartirish, mahalliy byudjetlarning moliyaviy imkoniyatlarini oshirish, bunga mahalliy hududlardagi yirik ishlab chiqarish guruhlarini hisobga olmagan holda soliq ba'zasini

⁵² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" PF-4947 Farmoni. 2017-yil 7-fevral

kengaytirish, sanoat ishlab chiqarish sohasida yangi korxonalarni tashkil etish, xizmat ko'rsatish, servis korxonalari tashkil etish, mavjud korxonalarni sog'lomlashtirish, modernizatsiya qilish, qayta qurollantirish, istiqbolsiz ishlab chiqarish korxonalarini yangi mulk egalari sotish orqali sog'lomlashtirish, soliq to'lovlari bo'yicha berilgan imtiyozlarni muddati tugashini hisobga olish va soliq yig'uvchilikni oshirish orqali erishish;

- Davlat kreditining xorijiy andozalaridan biri munitsipal kreditlar shaklini amaliyotimizga tadbiq etish, shuningdek mahalliy moliya organlariga muddatli qarz majburiyatlarini chiqarish huquqini berish va buning natijasida yig'ilga mablag'larni mahalliy ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish uchun yo'naltirish, davlat majburiyatlarini yirik korxonalarga qo'shimcha ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishni yaratishi hisobidan soliq va bojxona imtiyozlarini berish orqali qoplash;

- Davlat maqsadli jamg'armalari faoliyatini yanada takomillashtirish, bu borada byudjetdan tashqari jamg'armalar uchun yaxlit boshqaruv tizimini yaratish, har bir jamg'armaning ijtimoiy hayotdagi rolini oshirish.

Xulosa qilib aytganda, davlat moliyasi barqarorligini ta'minlashda byudjet tashkilotlari moliyasini yanada takomillashtirish qator omillarni hisobga olib amalga oshirilishi kerak. Bu omillar: byudjetning daromad va xarajatlar bo'yicha barqarorligi, me'yoriy-huquqiy bazaning takomillashganligi, menejer-kadrlarning nazariy va amaliy salohiyati, sohalarga axborot-kommunikatsion texnologiyalarning tobora kengroq va shiddatliroq kirib borishi va boshqa omillar. O'ylaymizki, bu omillarning o'z vaqtida hisobga olinishi islohotlarning kutilgan natijalarini beradi, ularning samarali va ta'sirchan bo'lishini ta'minlaydi, hukumatimiz tomonidan belgilab berilgan ustuvor vazifalarni to'laqonli bajarishga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda avvalo, iqtisodiyotimizni isloh etish va modernizatsiya qilish, davlat moliyasini boshqarish borasida amalga oshirilayotgan ishlar har tomonlama asosli va chuqur o'ylab chiqilgan. Ilmiy asoslarga tayangan va iqtisodiy qonunlar talabi asosida to'g'ri tashkil qilingan byudjetning g'azna

ijrosining ijobiy natijasida jamiyatda aholining farovonligi oshadi, aholining turmush darajasi yaxshilanadi. Mamlakatda byudjet taqchilligini boshqarish, huquqiy fuqarolik jamiyatini qurish, aholi farovonligini oshirish, g'aznachilik tizimida byudjetni to'liq ijro etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda davlat byudjeti g'azna ijrosi g'aznachilik operatsiyalari orqali amalga oshirilmoqda. G'aznachilik operatsiyalari – O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining g'azna ijrosida tushadigan daromadlarni turli darajadagi byudjetlar o'rtasida taqsimlash va hisobini yuritish, byudjetdan mablag' oluvchilarning xarajatlar smetalari ijrosi va byudjet ijrosi to'g'risida hisobotlar bilan bog'liq jarayonlarni o'z ichiga qamrab oladi. «G'aznachilik operatsiyalarini to'g'ri amalga oshirish davlatning ichki va tashqi qarzi va O'zbekiston Respublikasining kafolatlari masalalariga bog'liq».

Davlatning moliyaviy faoliyati, eng avvalo, davlat byudjetini shakllantirish, uning ijro etilishini ta'minlash, soliq siyosatini amalga oshirish, bank-kredit tizimini samarali ishlatish, byudjet taqchilligini boshqarish kabi sohalarni qamrab oladi. Byudjetning uch asosiy holati farqlanadi: taqchillik, profitsit va mutanosib holat. Mutanosib byudjet – xarajatlar va daromadlar miqdori bir-biriga teng bo'ladi. Iqtisodiy nazariyada byudjet taqchilligi umumiy xarajatlar hajmidan 1,0 foizga oshib ketmasa, bunday byudjet mutanosib deb hisoblanadi. Byudjet xarajatlarning daromadlardan oshib ketishi (byudjetning salbiy saldos) byudjet taqchilligini anglatadi. Byudjet daromadlarining xarajatlardan oshib ketishi (byudjetning ijobiy saldos) byudjet profitsitini anglatadi.

Hozirgi sharoitda byudjet davlat iqtisodiy siyosatining g'oyat muhim vositasi bo'ladi. Davlat byudjetidagi taqchillikni eng oz darajaga tushirish bosh vazifa hisoblanadi. Iqtisodiyotni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan mablag'larni ajratish va taqchillik o'rtasida eng qulay bo'lgan mutanosiblikni o'rnatish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu zarur bo'lgan mutanosiblik, albatta, iste'mol va iqtisodiyotni qayta qurish xarajatlarinigina qisqartirish evazigagina bo'lishi mutlaqo ziddir, chunki u iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining cho'zilib ketishiga olib keladi.

Iqtisodiyotning barcha sohalaridagi jarayonlarning kuchayishi, dunyodagi iqtisodiy globallashuv darajasining ortib borishi bilan moliyaviy qarorlar qabul qilishda so'nggi ma'lumotlarni qabul qilish, yig'ish, qayta ishlash va ularni chuqur tahlil etish muhimahamiyatga egaligidan dalolat bermoqda. Shundan xulosa qilish mumkinki, mamlakatdagi mahalliy va umumdavlat moliyasining holatini real baholash bilan bir vaqtda, xorijiy mamlakatlarda yuzaga chiqayotgan moliyaviy jarayonlarni o'rganib, ular bilan uyg'unlashgan holda dinamik tarzda amal qilishi, biz yuqorida sanab o'tgan takliflarning hayotiylik darajasini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

1.1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: O'zbekiston. 2015-40b. (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan).

1.2. O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi. O'zbekiston Respublikasi qonuni. O'RQ-360-son. 26.12.2013. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013 y. №52-I-son.

1.3. "Byudjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 414-son Qarori. 03.09.1999. (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 148-son qarori (16.06.2007) bilan tasdiqlangan yangi tahriri).

1.4. "Byudjet tashkilotlari va Byudjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini tuzish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizom ". O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 15.12.2014 y. 2634-raqam bilan ro'yxatga olingan.

1.5. "O'zbekiston Respublikasi Byudjet tasnifini qo'llash bo'yicha Yo'riqnoma" O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 20.08.2010 y. 65-son buyrug'iga ilova. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 19.11.2010y. 2146-raqam bilan ro'yxatga olingan.

1.6. Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi to'g'risidagi yo'riqnoma O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2010- yil 17- dekabrda 105-son buyrug'iga ilova.

1.7. Byudjet tashkilotlari daromadlar va xarajatlarining buxgalteriya hisobi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2012-yil 5-oktabrda 74-sonli buyrug'iga ilova.

1.8. "O'zbekiston Respublikasining 2013-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat Byudjeti parametrlari to'g'risida"gi Prezident qarori. PQ-1887-son. 25.12.2012.

1.9. “O‘zbekiston Respublikasining 2014-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va davlat Byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi Prezident qarori. PQ-2099-son.25.12.2013.

1.10. “O‘zbekiston Respublikasining 2015-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va davlat Byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi Prezident qarori. PQ-2270-son.04.12.2014.

1.11.2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini "Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat Dasturi to‘g‘risida PF-5308-sonli Farmoni, 2018 yil 7 Yanvar.

1.12. “Innovatsion loyihalarni amalga oshirish va idoraviy axborot tizimlarini jadal integratsiyalashuvining tashkiliy chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-3673-sonli. 2018 yil 18 Aprel.

1.13. Davlat xizmatlarini ko‘rsatish tizimini jadal rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida. PQ-3662-sonli. 2018 yil 11 Aprel.

1.14. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari. T: O‘zbekiston. 2009. – 56 b.

1.15. Karimov I.A BMT Sammiti Mingyillik Rivojlanish Maqsadlariga bag‘ishlangan yalpi majlisidagi nutqi. Xalq so‘zi / 21.09.2010.

1.16. Karimov I.A. 2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo‘l ochib berish — ustuvor vazifamizdir. T.: O‘zbekiston. 2015. 32b.

1.17. Mirziyoyev SH.M., “Tanqidiy tahlil,qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak” Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza 2017 yil 14 yanvar Toshkent - «O‘zbekiston» - 2017

1.18. Mirziyoyev SH.M. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz “ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentlik lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi, Toshkent-“O‘zbekiston”-2016

1.19. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizning mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz.-Toshkent.:”O‘zbekiston” NMIU,2017

1.20. Mirziyoyev SH.M. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi” O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimidagi ma’ruzasi, 2016-yil 7-dekabr.

II.Monografiya, ilmiy maqola, patent, ilmiy to‘plamlar

2.1. Malikov T.S. Moliya: O‘quv qo‘llanma / O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi.-T.: “Iqtisod-moliya”, nashriyoti, 2018 y. – 268b

2.2. Malikov T.S., Jalilov Sh.Q. Moliyaviy tizim: Zamonaviy talqin: o‘quv uslubiy qo‘llanma. - T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2016, - 116 b.

2.3. Malikov T.S., Jalilov P.T., Byudjet-soliq siyosati: monografiya, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta mahsus ta’lim vazirligi, Toshkent moliya instituti.-T.Akademnashr, 2011. – 472 b.

2.4. Vahobov A.V., T.Malikov. Moliya: Umumdavlat moliyasi. O‘quv qo‘llanma. T.: “IQTISOD-MOLIYA” - 2010, 595 b.

2.5. Vahobov A.V., T.Malikov. Moliya. O‘quv qo‘llanma. T.: “IQTISOD-MOLIYA” - 2012, 598 b.

2.6. Nurmuxamedova B., Kabirova N. “Moliya”, O‘quv qo‘llanma. T.:“Iqtisod-moliya”, 2014.207b.nashr, 2011.472 b.

2.7. Srojiddinova Z. O‘zbekiston Respublikasi Byudjet tizimi. T.:«infoCOM.uz». 2010. 480b.

2.8. Fayzullaev Yo.Sh., Azizova I.A. Byudjetni o'rta muddatli rejalashtirish. T.:«infoCOM.uz». 2010. 152 b.

2.9. Qosimova G., Shaakramov K. Mahalliy Byudjetlar. O'quv qo'llanma. – T.: “Moliya”, 2012. 260 b.

2.10. Po'latov D., Nurmuxamedova B. G'aznachilik. Darslik. - T.: “Sano-standart”. 2014. 272b.

2.11. Афанасьев М.П. Бюджеты бюджетная система (изд:2), юрайт, 2011. 782 стр.

2.12. Нешиной А.С. Бюджетная система Российской Федерации (изд:10), Дашков и К. 2011. 336 стр.

2.13. Селезнев А.З. Бюджетная система Российской Федерации. Магистр. 2011. 383 стр.

III. Foydalanilgan boshqa adabiyotlar.

3.1. Axmadjanov SH. Allakuliyev A. O'zbekistonda natijaviylikka yo'naltirilgan Byudjetlashtirish masalalri va xorij tajribasi. “Moliya” ilmiy jurnali. 4/2014. 133-bet.

3.2. Жиянова Н. Особенности финансирования социальной сферы на современном этапе экономического развития. “Moliya” ilmiyjurnali. 2/2014. 10-bet.

3.3. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining mustaqillik yillaridagi (1990-2010 yillar) asosiy tendentsiya va ko'rsatkichlari hamda 2011-2015 yillarga mo'ljallangan prognozlari: statistic to'plam. T.: “O'zbekiston” NMIU, 2011.

3.4. “Byudjet daromadlarini barqarorlashtirish va samarasiz xarajatlarni qisqartirish yo'llari “ Xaydarov N. X. Toshkent moliya instituti i.f.d., professor, Berdikulova N. A., TMI magistranti, Toshkent «Iqtisod-moliya» 2015, 43-bet

3.5. “Davlat byudjeti- uning nazariy- ilmiy asoslari”, Jo'rayev A.S.,i.f.d.professor, O'zbekistonda moliyaviy sektorning rolini oshirish va unda ilg'or xorij tajribasidan foydalanish mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy

konferentsiya materiallari to'plami Iqism, Toshkent «Iqtisod-moliya» 2015-y,44-bet

3.6. Agnieszka Jachowicz. Public finance consolidation in Czech Republic and Poland – what after crisis?. Procedia – Social and Behavioral Sciences. Vol. 220, May 2016, Pages 142-149.

3.7. Internet saytlari

- <http://www.mf.uz> (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi)
- <http://www.insee.fr> (Fransiya Iqtisodiy statistika milliy instituti)
- <http://www.ustreas.com> (RF Moliya vazirligi)
- <http://www.gks.ru> (RF statistika qo'mitasi)
- <http://www.amf-france.org> (Moliyaviy xizmatlar bo'yicha Fransiya kengashi)
- <http://www.duma.gov.ru> (RF Davlat Dumasi)
- (<https://www.scopus.com>), (<https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S1877042816305791>).